

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ

МИЛЛИЙ ҒОЯ, МАЪНАВИЯТ АСОСЛАРИ ВА ҲУҚУҚ ТАЪЛИМИ ЙЎНАЛИШИ

5141500 – Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими

Қаюмов Фарход Донобоевич

**“Ўзбекистонда парламент ислохотлари ва
унинг сиёсий-ҳуқуқий ҳаётдаги ўрни” мавзусидаги**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Термиз – 2014

MUNDARIJA:

KIRISH.....	2-6
--------------------	------------

I-BOB PARLAMENT INSTITUTI SHAKLLANISHI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

1.1. Parlament va parlamentarizm tushunchasi, uning mazmun-mohiyati.....	7-13
1.2. O'zbekiston Respublikasida parlament islohotlarining tarixiy zarurati.....	14-23

II-BOB O'ZBEKISTONDA PARLAMENT INSTITUTI VA UNING JAMIYAT SIYOSIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.

2.1. O'zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish va davlat hokimiyatini isloh etish jarayonida ikki palatali parlamentni shakllantirish jarayonlari.....	24-48
2.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi va uning jamiyat siyosiy-huquqiy hayotdagi ahamiyati.....	49-62
2.3. Oliy Majlis senatining huquqiy asoslari va uning jamiyat siyosiy-huquqiy hayotdagi o'rni.....	63-86

XULOSA	87-89
---------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	90-93
---	--------------

Kirish

«Parlament - bu jamiyat hayotini oynadek yaqqol aks ettiradigan ko'zgu. Binobarin, jamiyatda qanday intilish, fikr va harashlar mavjud bo'lsa, ular parlamentdagi muhokama va munozaralarda o'z aksini topishi kerak. Ana shunda parlament xalqning hoxish irodasi, ezgu maqsadlarini mujassam eta oladi».

Islom Karimov

Tadqiqot ishining yangiligi. O'zbekiston mustaqillikka erishib o'z davlat hokimiyati tizimini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan bir qatorda o'z taqdirini o'zi belgilash, jahon siyosiy tizimida o'z so'zini erkin bildirish huquqiga ega bo'ldi. Shu bilan bir qatorda tariximizni yangi qirralarini o'rganish, sovet davrida sotsialistik manfaatlardan kelib chiqib shakllantirilgan tariximizni yangi nigoh bilan ko'rib chiqish, O'zbekistonning yangi tarixini yaratish huquqini qo'lga kiritdik.

Bu borada Yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq: “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak. Biz barpo etayotgan davlat eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi lozim”¹.

Ushbu pallada mamlakatimizda davlat hokimiyati tizimining asosiy bug'inlaridan biri bo'lgan qonun chiharuvchi oliy hokimiyat organi, parlamentarimiz – Oliy Majlisning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995 yil 23 fevral. T.: O'zbekiston, 1996.

bilan bog'liq masalalarni tarixiy nuqtai nazardan ilmiy tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero mamlakatimizning o'tgan yigirma uch yillik mustaqillik va taraqqiyot yo'lida huquqiy asoslarni yaratuvchi va xalq vakilligining instituti sifatida parlamentimiz o'ziga xos o'rinni egalladi va chin ma'noda professional parlamentga aylandi. Davlatimiz Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatiga, uning bugungi kunda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida olib borayotgan faoliyatiga yuksak baho berib, shunday degan edi: "Mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotda, yangilanish jarayonida, islohotlariga qonuniy asos barpo etish va ularni izchillik bilan davom ettirishda, barcha samarali ishlarimizda Oliy Majlisning bosh-qosh bo'lib turganini biz bugun katta mamnuniyat bilan qayd etamiz"².

Biroq jamiyat taraqqiyoti bir joyda to'xtab qolmagani kabi Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda "hayot o'zgarishi bilan odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi ulg'ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir".

Xususan oxirgi yillarda parlament islohotlarining o'tkazilishi natijasida mamlakatimizda ikki palatali parlamentning qaror topishi yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi. Shu o'rinda ikki palatali parlamentni barpo etishdan ko'zlangan maqsad to'g'risida Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida shunday degan edi; "Ikki palatali parlamentni barpo etishdan maqsad; birinchi - parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish: ikkinchi - qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish: uchinchi - Senat asosan mahalliy Kengashlar,

² Karimov I.A. Vatan ozodligi – oliy saodat: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasidagi ma'ruza.- T.: O'zbekiston .1999. 8-b.

hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish: to'rtinchi - aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirish. Aynan shu maqsad yuqori palata – Senatning viloyat, shahar va tuman vakillik organlari deputatlaridan saylanishi zamirida ham mujassam. Yuqorida zikr etilgan maqsad va yo'nalishlarning barchasi, avvalo, mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida o'zoqni ko'zlaydigan “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan tamoyilni O'zida ifoda etadi”. Ikki palatali parlament tizimiga o'tish mamlakatimiz uchun yangi huquqiy-siyosiy institut – qonunchilik palatasi va yuqori palata – Senatdan iborat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishga imkon berdi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta'kidlab o'tish mumkinki, aynan mamlakatimizda tashkil etilgan ikki palatali parlament tizimi, shuningdek shu parlamentning quyi palatasi bo'lmish qonunchilik palatasi bilan bog'liq masalalarni tadbiq etish, qonunchilik palatasining faoliyati, uni shakllantirish, uning maqomi bilan bog'liq masalalar bugungi kunda tadqiqot ob'ekti sifatida katta ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Ayniqsa, qonunchilik palatasining bugungi kunda professional parlament palatasi sifatida doimiy ish olib borishi bu boradagi fikrimizni yana bir bor isbotlaydi.

O'zbekiston Respublikasida parlamentning qonun chiqaruvchi organ sifatida shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik o'zbek milliy davlatchiligini tarixiy rivojlanishi bilan o'zviy bog'liqdir³. Zero, O'zbekiston o'zi tanlagan demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan izchil siyosat olib bormoqda.

Darhaqiqat, qonun chiqaruvchi organ davlat mexanizmida asosiy o'rin tutishi isbot talab qilmaydigan hol. Buning sababi shundaki, u ijro etuvchi hokimiyat amalga oshirishi lozim bo'lgan va sud hokimiyatining faoliyati uchun

³ E.Xalilov. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar.–T.: O'zbekiston, 2001.–348 b.

qonunchilik asosi bo'lib xizmat qiladigan umummajburiy talablarni o'rnatadi. Shuningdek, Oliy Majlis nazorat-tahlil, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Shu bois biz ilmiy tadqiqot ishi mavzusini tanlash hamda uning ustida ish olib borish jarayonida O'zbekistonda qonun chiharuvchi hokimiyatning tarixiy ildizlari, uning ilk ko'rinishlari, tarixiy shakllanishi va rivojlanishi borasida olib borilgan islohotlar, shuningdek parlament institutining umumiy tavsifi, parlament va uning o'ziga xos xususiyati, parlament va uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'rni, O'zbekiston Respublikasida parlamentarizm va uni shakllantirish tartibi, O'zbekistonda qonun chiqaruvchi organining huquqiy asosi va uning namoyon bo'lish shakllari, qonunchilik palatasining vakolatlari va tashkiliy shakllari, Oliy Majlis Senatining huquqiy asoslari masalalari ilmiy nuqtai nazardan yoritib berildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ushbu mavzu har doim ilmiy nuqtai nazardan tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganib kelingan. Jumladan, A.A.Azizxo'jayev, S.Adiljodjayeva, H.Boboyev, M.Boydadayev, Z.I.Islomov, Sh.I.Jalilov, X.T.Odilqoriyev, F.X.Raximov, A.X.Saidov. M.M.Fayziyev, O.T.Xusanov⁴ asarlarida bu mavzuning u yoki bu jihatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilib berilgan.

Tadqiqotning metodologik va ilmiy-nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining metodologik va nazariy asosini O'zbekistan Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning huquqiy demokratik davlatni barpo etish, inson huquq va erkinliklarini har tomonlama muhofaza qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish to'g'risida bildirgan fikr va g'oyalari tashkil etadi.

⁴ Azizxo'jayev A.A. Demokratiya xalq hokimiyati demakdir. – T.: Sharq. 1996. – 226 b.; Adiljodjayeva S.M. Evolyutsiya politiko-pravovix idey liberalizma, problemi ix realizasii na soveremennom etape: Voprosi teorii i praktiki: Avtoref.diss.dok.yurid.nauk. –T.: 2003.-51 s; Boboyev H.B. O'zbek davlatchiligi tarixi. –T.: Fan. 2004. – 294 b.; Boydadayev M. Fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvining dolzarb muammolari. – T. TDYuI. 2003.- 52 b.; Islomov Z.I. Inson huquqlari va hozirgi zamon yurisprudensiyasi. – T.TDYuI. 2008. Jalilov Sh.I. Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan o dostoinstve i chesti lichnosti. T.: TGYuI. 2003. – 116 s.; Muqimov Z.Yu. O'zbekiston davlat va huquqi tarixi. Darslik. – T.: Adolat. 2003 y.;Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati – T.: Sharq. 2002. – 320 b.; Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Sharq. 2001. – 762 b.; Fayziyev M.M. Milliy davlatchilik taraqqiyoti. – T.: JIDU. 2002. – 33 b.; Xusanov O.T. O'zbekiston respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. – T.: Universiteti. 1994. -132b.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati - tadqiqotda keltirilgan takliflardan, xulosalardan konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, vakillik organlari, huquqni muhofaza qiliuvchi organlar, sud statistikasi, jinoyat huquqi, jinoyat prosessual huquqi fanlari bo'yicha huquqshunoslik fakul'tetlarida talabalarga dars berishda, ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining to'zilishi. Kirish, besh paragrafni o'z ichiga olgan ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. Bob. Parlament instituti shakllanishi va uning asosiy xususiyatlari.

1.1. Parlament instituti shakllanishi va uning asosiy xususiyatlari.

Parlament so'zining lug'aviy ma'nosi fransuzcha «parler» so'zidan olingan bo'lib, «gapirmoq», «so'zlamoq» ma'nolarini anglatadi. Parlament deganda qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy vakillik organi tushuniladi. Davlat hokimiyatining oliy vakillik organini belgilashda parlament atamasi Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Kanada, Italiya, Moldova, Qozog'iston kabi davlatlarda ishlatiladi. Ba'zi mamlakatlarda esa «Majlis» «Kengash» «Assambleya» kabi atamalar keng qo'llaniladi. Bundan tashhari, davlatlar o'z tarixiy tajribasidan kelib chiqib parlamentlarni shunga muvofiq nomlaydilar, masalan, Latviya va Litvada qonunchilik organi «Seym» deb nomlansa, Turkiyada «Buyuk Millat Majlisi» deb ataladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida va aksariyat Janubiy Amerika mamlakatlari parlamentlari «Kongress» deb nomlanadi.

Aksariyat ikki palatali parlamentlarda palatalarning nomi bir-biridan farq qiladi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari Kongressi quyi palatasi «Vakillar Palatasi», Yuqori palatasi esa «Senat» deb nomlanadi. Parlamentning yuqori palatasi «Senat» deb nomlash odat tusiga kirgan.

Dunyoning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarida parlament ikki palatali ko'rinish xosil qilgan. Bunda quyi palata asosan to'g'ridan-to'g'ri saylovlar asosida shakllantirilishi bois liberal xarakter kasb etadi. Yuqori palatada esa aksincha, tayinlash, mandatni meros asosida qabul qilib olish kabi usullar uchrab turishi bois, bu palata konservativ xususiyatga ega xisoblanadi.

Monokameral, ya'ni bir palatali tizim ham dunyo tajribasida keng qo'llaniladi. Bundan tashhari ba'zi Afrika va Okeaniya davlatlari parlamentlarida maxsus tashkillashtirilgan qo'shimcha palatalar ham uchrab turadi. Parlament demokratik davlatlardagi vakillik organi bo'lib, qonun chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Zamonaviy parlament bu yuqori turuvchi organ bo'lib, xalq xoxish-irodasini ifoda etadigan qonun chiqarish yo'li bilan jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga

soladigan ijroiya hokimiyati organlari va mansabdor shaxslar ustidan umumiy nazorat olib boradigan markaziy organ xisoblanadi.

Bundan tashhari parlament boshqa davlat organlarining faoliyatini ham tashkil qiladi.

Parlamentarizm bu parlamentning boshqa davlat idoralariga nisbatan ustuvorligi, qonunchilik va ijroiya funksiyalarining aniq bo'lishini tavsiflagan boshharuv tizimidir. Parlament faoliyatini amalga oshirish shakllari har xil bo'lib, jumladan, baxslar yoki sessiyalar shaklida bo'lishi mumkin.

Parlament baxslari bu parlamentdagi u yoki bu qonun loyihasi bo'yicha chiqishlar bo'lib, unda deputatlar o'z fikri va muloxazalarini bildiradilar. Parlament sessiyasi (lotincha sessio - majlis) - parlament va uning hay'atining plenar majlisi bo'lib utadigan vaqt. Bir yil ichida parlament sessiyalari necha marta bo'lishi kerakligi qonunlar yoki odat huquqi normalari bilan belgilanadi. Bunday odatdagi sessiyalardan tashhari, navbatdan tashhari va favqulodda parlament sessiyalari bo'lishi mumkin⁵.

Parlamentning davlat mexanizmida tutgan o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, J. Lokk va Sh. Monteskye kabi davlat hokimiyatining bo'linishi g'oyasi tarafdorlari uning vakolatlarini asosan qonun ijodkorligini amalga oshirish bilan cheklashga intilishgan. J.J. Russo esa davlat hokimiyatining yaxlitligi haqida so'z yuritadi va qonunchilik organining ijroiya hokimiyatni nazorat qilish g'oyasini ilgari suradi.

Zamonaviy parlament bu - qonun qabul qilish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat hokimiyatining oliy vakillik organi. Bu funksiya o'z navbatida bir qator moliyaviy vakolatlarni, jumladan, davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat qilish vakolatini ham hamrab oladi. Davlat boshharuv tizimiga harab, u yoki bu darajada parlament hukumatni nazorat qilish vakolatiga ham ega xisoblanadi. Masalan, Ispaniya Konstitusiyasiga muvofiq, General Kortesarlar (Ispaniya Parlamenti) qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi, davlat byudjetini qabul qiladi va hukumat faoliyatini nazorat qiladi. Biroq jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ba'zi xollarda parlamentning o'zi hukumat siyosati ta'siri ostida qolib ketishi va nisbatan mustaqilligini yo'qotishi mumkin. Bu jarayonni sobiq Sovet davlatlari parlamentlari misolida yaqqol ko'zatish mumkin. Qolaversa ayrim rivojlanayotgan

⁵ Yuridik ensiklopediya, Toshkent, «Shark», 2001 yil, 355 – bet

Afrika va Osiyo mamlakatlari oliy vakillik organlari garchand rivojlangan arab mamlakatlari modeli asosida shakllantirilgan bo'lsada, amalda real hokimiyatdan maxrum xolda faoliyat yuritadilar.

Parlamentning vakillik xususiyati shundaki, u butun millat, fuqarolar nomidan ish yuritadi. Shu sababli ko'p xollarda parlamentni nomlashda "Milliy", "Xalq" atamalaridan keng foydalaniladi.

XVIII-XIX-asrlardayoq vujudga kelgan milliy vakillik konsepsiyasi quyidagi tamoyillarning majmui sifatida e'tirof etilishi mumkin:

1. Milliy vakillik konstitutsiya vositasida joriy qilinadi;
2. Suverinitetning mutlaq egasi sifatida millat parlamentga o'z nomidan ish yuritish vakolatini beradi;
3. Parlament a'zosi uni saylagan fuqarolarning emas, balki butun millatning vakili xisoblanadi, shu sababli o'z saylovchilariga qaram ham bo'lmaydi.

L. Dyugi va M. Prelo kabi olimlarning ta'kidlashicha, parlament butun millat o'z nomidan ish yuritish vakolatini bergan organ, u xalq irodasini mustaqil tarzda anglab yetadi va konstitutsiya doirasida faoliyat yuritadi, ya'ni parlament hech kimga, shu jumladan, fuqarolarga ham bo'ysunmagan tarzda millat manfaatidan kelib chiqqan xolda faoliyat olib boradi, uning milliylik xususiyati ham aynan shunda⁶.

Parlament o'z ijtimoiy-siyosiy funksiyalarini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshira olishi uchun, unga konstitutsiya tomonidan bir qator vakolatlar beriladi.

Parlament vakolatlarining hajmiga qarab uning quyidagi uch xil turini belgilash mumkin:

1. Cheklanmagan vakolatli parlament;
2. Mutlaq cheklangan vakolatli parlament;
3. Nisbatan cheklangan vakolatli parlament.

Parlamentar boshharuv shakliga ega bo'lgan aksariyat davlatlarda parlament vakolatlari cheklanmagan xisoblanadi. Bunga Buyuk Britaniya parlamenti klassik misol

⁶ Dyugi L. Konstitusionnoye pravo. M., 1908 y. 416 b. Prelo M. Konstitusionnoye pravo Fransiya. M., 1957 y., 436 b.

bo'lishi mumkin. Ingliz huquqshunos olimlarining ta'kidlashicha, Parlamentning ustivorligi quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Qonun qabul qilish soxasidagi ustunlik. Qonun faqat parlament tomonidan qabul qilinishi mumkin, o'z navbatida qonun normativ huquqiy aktlar iyerarxiyasida birinchi o'rinni egallaydi;
2. Davlat byudjetini tasdiqlash va soliqlarni joriy qilish huquqi;
3. Hukumatning parlament oldidagi javobgarligi;
4. Sudyalarni o'z lavozimiga tasdiqlash huquqi;
5. Parlament vakolatlariga o'xshash vakolatlarni amalga oshiruvchi raqobatchi hokimiyatning mavjud emasligi⁷.

Huquqshunos P. Bromxed mutlaq vakolatli parlament g'oyasini yoqlab chiqadi. Uning ta'kidlashicha, qonun mazmuniga doir hech qanday cheklovlar, uni qabul qilishga hech qanday to'siqlar mavjud emas⁸.

Parlamentni davlat hokimiyatning oliy vakillik va yakka qonunchilik organi sifatida belgilagan Yaponiya Konstitusiyasida parlament vakolatlari aniq sanab ko'rsatilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, Yaponiya Parlamenti cheklanmagan vakolatli parlament organi ekanligini tasdiqlaydi.

Parlamentning qonunchilik soxasidagi vakolatlarining muayyan doiraga kiritilishi, uni mutlaq cheklangan vakolatli parlament sifatida e'tirof etish imkonini beradi. Fransiya Konstitusiyasining 34, 35, 49 - moddalarida parlamentning qonunchilik yo'li bilan hal qilishi mumkin bo'lgan masalalar ro'yxatini belgilab beradi. Qolgan masalalar bilan asosan hukumat shug'ullanadi. Fransiya parlamenti o'z vakolati doirasidan chetga chiqib qonun qabul qiladigan bo'lsa, bu hujjat Konstitusiyaviy Kengashning xulosasiga asosan hukumat dekreti bilan bekor qilinishi mumkin.

Rivojlanayotgan davlatlar parlamentlari vakolatlarini ham ko'p xollarda mutlaq cheklangan vakolatlar sifatida qayd etish mumkin. Senegal, Gabbaon kabi ilgari Fransiya mustamlakasi bo'lgan davlatlarda parlament, aynan, franso'z modeli asosida joriy qilingan.

⁷ Ueyd E., Fikkips G. Konstitutsionnoe pravo. M., Il, 1950 y., 70 b.

⁸ Bromxed P. Evolyutsiya Britanskoy konstitutsii. M., YuL, 1978 y., 199 b.

Nisbatan cheklangan vakolatli parlamentlar ko'proq uchrab turadi. Bu kabi parlamentlar asosan federativ yoki markazlashmagan unitar to'zilish shakliga ega bo'lgan mamlakatlarga xos. Sababi bunday davlatlarda markaziy hokimiyat organlarining vakolatlari federasiya subye'ktlari huquqlari bilan cheklanadi, shunga asosan parlament faqat mahalliy hokimiyat organlari huquqi bilan cheklangan doiradagina o'z faoliyatini yuritishi mumkin. Masalan AQSh Kongressi faqat Konstitusiyada aniq ko'rsatib qo'yilgan vakolatlarnigina amalga oshirishi mumkin.

Ispaniya Konstitusiyasida ham shunga o'xshash tartib o'rnatilgan bo'lib, unga binoan, Konstitusiyada bevosita davlat vakolati doirasiga kiritilmagan masalalar, Avtonom uyushmalar ixtiyoriga ularning Nizomlariga asosan beriladi.

Birinchi parlament qayerda paydo bo'lgan degan savolga Birinchi parlament Angliyada paydo bo'lgan deb sanash qabul qilingan. Uning tug'ilishi shakllanayotgan burjuaziya va dvoryanlar urtasidagi murosaa bo'lib, aholining bu ikki guruhi urtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Dastlab, parlament qirolga maslaxatlar bergan, ammo keyinchalik u o'ziga tegishli bo'lgan o'rinni egalladi.

Nisbatan yoshi katta bo'lgan parlamentlar qatoriga Ispaniyaning kortesini ham qushishimiz mumkin. Eng qadimgi parlament tug'ilgan mamlakat roli uchun ko'p mamlakat musobaqalashmaydi. Islandiya poytaxti Reykyavik yaqinida joylashgan bir nechta qupol va katta toshlarga ishora qilib bu yerda ochiq osmon ostidagi dastlabki parlament bo'lgan deb aytishadi. U hozir ham oldingi nomi bilan Alting deb ataladi. Islandiyaliklar bu yerda qadimgi vikinglar o'z ishlarini muxokama qilishgan va hal qilishgan deb xisoblaydilar.

Parlamentarizm bosqichlari. Parlament va parlamentarizm tarixi bir necha asrlarni bosib kelmoqda. Agar birinchi parlament XIII yoki XIV asrlarda shakllangan deb xisoblasak, parlament va parlamentarizm tarixini to'rt bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi, boshlangich bosqichni *parlamentarizm institutining o'rnatilishi* deb atash mumkin. Bu bosqichda parlament davlat organi sifatida o'rnatila boshlangandi: parlament o'z o'rnini va rolini qidira boshlagan, birinchilik uchun kurashgan; uni shakllantirish uchun ishlab chiqila boshlangandi. Bu bosqich yetarli o'zoq davom etgan (XIV - XIX asrlar).

Ikkinchi bosqich - parlamentarizmning oltin davri - parlament va parlamentarizmning gullab-yashnash davri deb atash mumkin.

Bu bosqich aytarli davomiy bo'lmagan (XVIII asr oxiri va XX asr boshlari), ammo parlamentarizm tarixida yorqin iz qoldirgan. Bu davrda parlament saylov senzi asosida shakllantirilgan bo'lib, faqat bir sinfning – tug'ilib kelayotgan burjuaziyaning manfaatlarini ifodalagan.

Faktik jixatdan faqat bir gurux o'zlarining ichlaridan eng ma'qullarini tanlab olganlar. Aynan shu davrda parlament ayolni erkakka aylantirishdan va erkakni ayolga aylantirishdan boshqa har qanday ishni amalga oshira oladi deb ayta boshlaganlar. Bu ibora uning usha vaqtdagi kuch qudratidan dalolat beradi.

Bu davrda ayollar saylash huquqiga ega bulmaganlar va parlament saylash huquqiga ega bo'lgan shaxslar guruxining o'n – o'n besh foizi tomonidagina saylangan.

Uchinchi bosqichni shartli ravishda *parlamentarizmning inqiroz davri* deb atash mumkin. XX asrning boshlarida taraqqiy etgan davlatlarning ko'pchiligida xolat o'zgardi: boshqa ijtimoiy qatlamlar ham siyosiy hayotda qatnashishni talab qila boshladilar, ushbu qatlamlar va guruxlar manfaatlarini ifodalovchi partiyalar tashkil topa boshladi, senzli saylash huquqi anaxronizm deb sanala boshlandi. Parlament oldingidek qarorlar qabul qilishda tezkor emas edi, eng muximi, u bir qatlam manfaatlarini ifodalashdan tuxtadi.

Parlament o'z o'rnini ijro hokimiyatiga bushatib berishi kerakligi talab qilindi va xaqiqatda ham ijro hokimiyati liderlik pozitsiyasini egalladi. Ilmiy

- tadqiqodchilar bu xolni ma'qulladilar. Masalan, angliyalik professor Djenings parlamentning vazifasi mamlakatni boshqarish emas, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta'sir ko'rsatish va hukumat xatti - xarakatlarini nazorat qilish deb xisoblaydi.

«Parlament inqirozi» deyarli o'zoq vaqt hukm surdi. Oxirgi yigirma yillikda esa parlament o'zining *parlamentlarning qayta tug'ilishi* deb ataluvchi yangi bosqichiga kutarildi deb aytish mumkin. XX asrning 70 - 90 - yillarida parlament xalq yig'ilishining faol va vakillik organiga aylandi.

1.2. O'zbekiston Respublikasida parlament islohotlarining tarixiy zarurati.

Qonun chiqaruvchi oliy organ shakllanishi va rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston davlat hokimiyati tizimida tom ma'nodagi qonun chiqaruvchi korpus, parlament hech qachon bo'lmagan. Nazariya va amaliyotda qonun chiqaruvchi tizimning sodda, kemptik obrazi shakllangan bo'lib, bunda qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalda ado etish Oliy Sovetning faol ishi bilan emas, balki partiya apparatining faoliyati bilan uyg'unlashtirilgan edi.

Siyosiy tizim o'n yillar mobaynida ijtimoiy hayotni demokratik qonunlar doirasida tashkil etishga emas, balki, asosan, o'zboshimcha farmoyishlar va ko'rsatmalarni bajarishga moslashtirilgan edi. Demokratik siyosiy tizimlarning negizi esa erkin saylanadigan parlamentlarni shakllantirishdan, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini hamda hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishini kafolatlovchi yangi Konstitutsiya va qonunlarni qabul qilishdan iboratdir.

Vakillikning sovetlarga xos ko'rinishining siyosiy evolyutsiyasi, garchand bu hol asosan uning faoliyat shakllarini va mohiyatini demokratlashtirish yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsada, 1980 - yillar oxiridagi siyosiy islohotdan so'ng parlament shakliga aylana boshladi. Rossiyalik olim Yu.A.Tixomirov o'sha davrga ta'rif berib yozgan ediki, fuqarolar huquqlarini ta'minlash qonunlarning asosiy g'oyasiga aylandi, ayniqsa SSSR Ittifoqi darajasida qonun hujjatlarini keng miqyosda yangilash va rivojlantirish davri boshlandi, o'nlab yangi qonunlar qabul qilindi, shuningdek mazkur jarayon asta-sekin ittifoqdosh respublikalarga ham yoyildi.⁹ Biroq gro'zin tadqiqotchisi G.Muchaidze to'g'ri ta'kidlaganidek, sovet ittifoqida amalga oshirilgan saksoninchi yillarning islohotlari sotsializm to'g'risidagi yanglish tasavvurlar doirasidan chetga chiqqani yo'q, ular kommunistik to'zumning qulashini tezlashtirdi, xolos.¹⁰

⁹ Tixomirov Yu.A. Rossiyskoe zakonodatelstvo: problemoyi perspektivo'. - M.: Bek. 1995. 439-b.

¹⁰ Muchaidze G, Al'ternativa (Perspektiva razvitiya postkommunisticheskogo obshestva s tochki zreniya sotsial-demokratov). - Tbilisi, 1995. 6-b.

Qayta qurish jarayonlarida ko'tarilgan demokratik g'oyalar to'lqini sobiq Ittifoq respublikalari bo'ylab tarqaldi. Sotsialistik g'oyalar va kommunistik aqidalar shubha ostiga qo'yila boshlandi, ma'muriy tizimning obro'siga keskin putur etdi. Jamiyatda vakolatli parlamentsiz to'laonli demokratiya bo'lishi mumkin emas, degan qat'iy haqiqat qaror topa boshladi.

Biroq XX asr 80 - yillar oxiri va 90 - yillar boshidagi siyosiy vaziyatni tahlil qilish asosida o'sha davrdagi ayrim go'yoki demokratik yangilanishlar, o'zgarishlarga markazning harakatini "cho'kayotgan kemani" qutharish bo'yicha oxirgi najot harakati deb baholash mumkin. Zero go'yoki demokratik yangilanishlar zahirida eski to'zumni asrab qolish, mustaqillikka intilayotgan davlatlarni yana ittifoq iskanjasi domiga tortish siyosati yotar edi.

1978 yilgi Konstitutsiya yangi Oliy Sovetni O'zbekiston davlat hokimiyatining doimiy ishlab turuvchi qonun chiharuvchi, farmoyish beruvchi va nazorat organi sifatida belgilab qo'ygan edi. Oliy Sovetning doimiy ishi uning majlislari bilan, shuningdek ular oralig'ida o'tkaziladigan Oliy Sovet doimiy va boshqa komissiyalarining majlislari bilan ta'minlangan.

Oliy Kengashning doimiy ishlab turuvchi organ sifatidagi yangi maqomi uning faoliyati tashkil etilishini tubdan o'zgartirishni zarur qilib qo'ydi. Oliy Kengashga saylangan deputatlar muayyan muddatgagina emas, balki ularni yangi butun vakolati davriga xizmat yoki ishlab chiharish vazifalarini bajarishdan ozod etilishi mumkinligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoida ham shu bilan bog'liq. Oliy Kengash a'zolarining qaysi qismi Oliy Kengashdagi doimiy ishga to'liq jalb etilishi kerakligini amaliyot ko'rsatdi.

Shu tariqa, O'zbekiston tarixida birinchi marta doimiy ishlab turuvchi deputatlarga, ya'ni professional deputatlarga ega bo'lgan vakillik organiga zarurat tug'ildi va tarkib topdi. Shu munosabat bilan Oliy Kengashning o'z vazifalarini bajarishdagi imkoniyatlari ancha kengaydi.

Asta-sekin deputatlarning Oliy Kengash sessiyalarini tashkil etish va ularni o'tkazish bilan bog'liq masalalarni tayyorlashdagi ishtiroki kuchaydi. Sessiyalar

avval bo'lganidek, Oliy Kengash apparatining kuchlari bilangina emas, balki deputatlarning keng ishtirokida tayyorlana boshladi. Jumladan, o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning navbatdagi sakkizinchi sessiyasi arafasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1991 yil 28 noyabrdagi qarori bilan barcha tayyorgarlik tadbirlarini o'tkazish sessiya kun tartibi, uning ishchi organlari tarkibi, qonun loyihalarini tayyorlash tartibi va muddatlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, shuningdek deputatlarni kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirish, jo'natish, majlislar zalini tayyorlash bilan bog'liq barcha tashkiliy-xo'jalik masalalarini hal etash uchun 21 nafar deputatdan iborat tarkibda ishchi guruhi to'zildi¹¹. Bunday amaliyot takomillashtirila boshlandi va deputatlar faolligini ancha oshirish imkoniyatini berdi. Masalan, o'n uchinchi sessiyaga tayyorgarlik ko'rish paytida ishchi guruhi endi 41 nafar deputatdan iborat bo'lgan.¹²

Oliy Kengash Rayosatini shakllantirishga, uning tutgan o'rni va roliga yangi nuqtai nazardan yondashildi. Oliy Kengash ishining tashkil etilishini ta'minlash uning bosh vazifasiga aylandi. Yangi Rayosatning avvalgisidan eng muhim farqi shundan iborat ediki, unga qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish, normativ farmonlar chiqarish, sessiyalar oralig'idagi davrda, ilgari nazarda tutilganidek, bir qator masalalar yo'zasidan Oliy Kengashning ishini qilish huquqi berilmagan edi. Shu asnoda, Oliy Kengashning vakolatlari mustahkamroq kafolatlandi. Masalan, Oliy Kengash Rayosatining ishini tashkil etish O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar, 1990-1991 yillar oralig'idagi davrda bu organ 30 tadan ziyod majlis o'tkazganini ko'rsatadi. Ana shu majlislarda sessiyalarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan, qo'mitalarda ishlab chiqilgan qonun loyihalari, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tadbirlar va

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992. №5 1, 109,

¹² O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993. № 7. 29 - 31-b.

boshqa masalalar muhokama qilingan. Oliy Kengash qo'mitalarining roli ancha oshgan.¹³

Masalan, 1990-1991 yillardagina qo'mitalar tomonidan 142 ta majlis o'tkazilib, ularda 490 tadan ziyod masala ko'rib chiqilgan.¹⁴ Ko'rib chiqiladigan masalalar yo'zasidan qo'mitalar tavsiya xususiyatiga ega bo'lgan qarorlar qabul qilganlar va qonunlarning loyihalari yo'zasidan xulosalar berganlar. Qo'mitalarning tashkil etilishi va ularning faoliyatiga ko'pgina yangiliklar kiritilgan. Qo'mitalar ishining samaradorligini oshirishda ularga "O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining mandat komissiyasi va qo'mitalari to'g'risida"gi qonun bilan berilgan keng huquqlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi¹⁵.

Qonun hujjatlarini va Oliy Kengash qumitalarining ish amaliyotini tahlil etish ularning faoliyatini to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha guruhlash imkoniyatini beradi. Bular: 1) Qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarning loyihalarini tayyorlash; 2) Oliy Kengashga hisobdor davlat organlari ustidan va qabul qilinayotgan qonunlarning amal qilish samaradorligi ustidan nazoratni amalga oshirish; 3) Oliy Kengash tasarrufiga kiruvchi masalalarni oldindan ko'rib chiqish va tayyorlash; 4) O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Kengash tomonidan qabul qilinayotgan boshqa normativ hujjatlarning hayotga tatbiq etilishiga ko'maklashish.

Umuman olganda, butun siyosiy tizimda bo'lgani singari, qonun chiharuvchi organlari tarkibiy va boshqa chuqur o'zgarishlar o'z umrini yashab bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik usullariga qarshi samaraliroq kurash olib borish, partiya va davlat organlarining vazifalarini aniqroq chegaralab qo'yish, ijtimoiy hayotni demokratiya asosida tashkil etishga bosqichma-bosqich o'tish imkoniyatini berdi. Bunda Oliy Kengash hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan ajralgan va o'z saylovchilaridan o'zilib qolgan mahdud to'zilmaga aylanib qolgani yo'q.

¹³ O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining birinchi sessiyasida Oliy Kengashning 16 ta doimiy komissiyasi tuzilgan edi. Ikkinchi sessiyadayoq ular (Mandat komissiyasi bundan mustasno) qo'mitalarga aylantirilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari. 1990. № 10 — P.17-b; № 16 - 18. 72 -73-b.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining arxivi. 1991. 7358-son . 240-b.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991.№ 8. 129 - 138-b

O'zbekiston Oliy Kengashiga qonun chiqarish ishlarini amalga oshirishda kengroq imkoniyatlar berildi. Demokratik davlatni shakllantirish yo'zasidan qo'yilgan vazifa jamiyatda qonunlar ustunligini qaror toptirishni, partiya va ijro etuvchi-farmoyish beruvchi organlarning huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish borasidagi faoliyat doirasini toraytirish hisobiga ijtimoiy munosabatlarni qonunchilik yo'li bilan tartibga solish soxasini kengaytirishni taqozo etardi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasi 1990 yil mart oyida O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritdi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini ta'sis etdi va mamlakatimiz tarixidagi birinchi Prezident - I.A.Karimovni sayladi.¹⁶

O'zbekistonda prezident hokimiyatini joriy etish zarurligi Sh.Z.O'razaev tomonidan asoslab berilgan bo'lib, uning quyidagi fikri muayyan qiziqish uyg'otadi: "Prezident lavozimini ta'sis etishda prezident hokimiyatining zarurligi vaziyatning murakkabligi bilan ham ijro etuvchi hokimiyatga kuchaytirish, uni qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan birlashtirish zarurligi bilan ham, jamiyatni jipslashtirish, jamiyat muxtoj bo'lgan samarali choralarni ko'rish zarurligi bilan ham asoslangan".¹⁷

Sh.Z.O'razaevning fikriga qo'shilgan holda, shuni qo'shimcha qilish kerakki, O'zbekiston sobiq ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib prezidentlik institutini joriy etdi. Bu sovet totalitar to'zumining parchalanishi va O'zbekiston mustaqillikka erishishi yo'lida muhim qadam bo'ldi. Shunisi ham borki, bu ana shu chinakam tarixiy voqeaning barcha qatnashchilaridan, avvalo Prezidentning o'zidan zo'r matonat talab qiladigan dadil qadam bo'ldi. Negaki, o'sha davrda respublika eng zabardast davlatlarlan biri bo'lmish SSSR tarkibida edi. Prezidentlik hokimiyatini ta'sis etishda birinchilik O'zbekistonga tegishli edi. Ta'kidlab o'tish joizki ushbu respublika hayoti uchun muhim tarixiy qarorning qabul qilinishi mamlakatimizning shu davrdagi qonunchilik hokimiyati Oliy Sovet faoliyatida

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari. 1990.- № 7.14 va 15-b.

¹⁷ Urazaev Sh.Z. Model zakona: kakoy ey bi't? — T.: Fan. 1990. 47-b

davlat hayotiga oid o'ta muhim qarorlarni mustaqil tarzda hal qilish borasida muhim yangilik bo'ldi va O'zbekistonning keyingi taraqqiyot yo'lini belgilashda tarixiy burilish yasadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu davrda Oliy Sovetning faoliyatiga oid masalalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Birinchidan, o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi 1990 yil 20 iyunda davlat suverenitetining eng muhim printsiplari mustaxkamlab qo'yilgan Mustaqillik deklaratsiyasini qabul qilib, O'zbekiston xalq uchun g'oyat muhim qadamni qo'ydi. Voqealarning keyingi rivoji O'zbekiston tutgan yo'lning to'g'riligini tasdiqladi. Markazdan biron-bir ko'rsatma bo'lishiga umid bog'lamasdan, mo'ljallanayotgan ittifoq shartnomasida mustaqillik qachon va qanday mustahkamlab qo'yilishini kutib o'tirmasdan, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi amalda ro'yobga chiharila boshlandi va bu jarayonda Oliy Sovet mustaqillik asoslarini belgilovchi huquqiy asoslarni qabul qilishdek muhim vazifalarni bajardi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda vakillik demokratiyasi endigina shakllanayotgan edi. Yangi parlament tizimining oyoqqa turish jarayoni kechayotgan bir pallada ko'ppartiyalilik hali mavjud emas edi. Shu sababli aksariyat hollarda jamoatchilikning fikri siyosiy vositachiliksiz qonun ijodkorligiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazar va uning xususiyatu ko'lamlari o'zgacha bo'lar edi. Qonun hujjatlari fuqarolarning ayrim guruqlari o'z fikrlarini mitinglar va namoyishlar, ultimatumlar yo'li bilan bildirgan, shu zayl davlat hokimiyati organlariga bevosita ta'sir o'tkazishga harakat qilgan, siyosiy ehtiroslar junbushga kelgan bir vaziyatda qabul qilingan hollar ham bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, 80-yillarning oxirida va 90-yillarning boshida beqarorlik, boshboshdoqlik avj olgan bir davrda har xil muttahaamlar siyosat maydoniga chiqib keldilar va ularning maqsadlari faqat bo'zish, emirish, baqir-chaqir, shovqin-suron solishdan iborat bo'lgandi.¹⁸

¹⁸ Karimov I.A. Biz kelajzimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, T. 7. — T.: O'zbekiston.1999. 362-b.

Ba'zan qonun chiharuvchilarga "ko'cha" tomondan qilingan tazyiq guruhlarning xususiy manfaatlari foydasiga birtomonlama qarorlar qabul qilinishiga olib keldi. Qonun yaratish ishiga bunday yondashuv esa ijtimoiy va siyosiy ixtiloflar manbaidir. Go'yo hamma demokratiyani yoqlar edi. Ammo demokratlashtirish jarayoni tobora amaliy tus ola boshlagach, jamiyatning barcha qatlamlariga, har bir shaxs halbiga singib borgani sari o'zoqni ko'zlamagan, tor doiradagi manfaatlar, xatto ayrim shaxslar va guruhlarning xudbin istaklari bilan butun jamiyat manfaatlari o'rtasidagi tafovutlar ko'zga tashlanib qoldi.

Uchinchidan, deputatlar orasida ham ashaddiy amalparastlar, o'ngida ham, tushida ham hokimiyatga talpinadiganlar chiqib qoldi, ular maqsadga erishish uchun Oliy Kengash bilan O'zbekiston Prezidenti o'rtasida janjal urug'ini sepishga urindi. Eng haltis lahzalarda deputatlarning aksariyat ko'pchiligi Prezident atrofida jipslashdilar va xomtama bo'lib yurganlarga zarba berdilar. Lekin ayrim deputatlar mohirlik bilan panaga o'tib, qiyofalarini mohirlik bilan o'zgartirib, demokratik shiorlarni niqob qilib olib, huquqiy plyuralizmni huquqiy boshboshdoqlikka aylantirib, ma'lum muddatgacha o'z hamkasblarining ijodiy fikr-o'ylarini bo'g'ib, amaliy ishlardan chetga tortib keldilar. Ular ochiq-oydinlik, oshkoralikdan o'zlarining tor doiradagi xudbin maqsadlariga erishish yo'lida bir necha bor foydalanishga urindilar.

To'rtinchidan, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini tartibga solar ekan, qonun chiharuvchi muqarrar ravishda o'sha davr uchun favqulodda murakkab muammoga - huquqlar va majburiyatlar o'rtasidagi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi nisbatni belgilash muammosiga duch keldi. Zero, o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning oldida turgan eng muhim vazifa - qonunlarni chuqur demokratik mazmun bilan boyitish, shaxsning to'la erkin bo'lishi yo'lidagi barcha yasama, sun'iy to'siqlarni olib tashlashdan iborat edi. Inson huquqlari to'g'risida umumiy qabul qilingan xalqaro andozalarga mos keladigan yangi qonun hujjatlarining butun bir turkumini ishlab chiqish kerak edi. Bu vazifani ro'yobga chiqarish qiyin

sharoitlarda kechdi. Negaki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bo'za turib va talay avvalgi to'zumni bekor qilgan holda bu vaqtga kelib O'zbekistonda demokratik jamiyatga munosib yangi tizim yaratilmagan edi. Bunday sharoitda Oliy Kengash zimmasida ushbu masalalarni hal qilish bo'yicha katta mas'uliyat yotardi.

Oltinchidan, O'zbekistonda suveren hokimiyatning mustahkamlanish jarayoniga 1991 yvl 18-21 avgust voqealari hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. O'shanda butun SSSR hududida favqulodda holat joriy etilgan, davlat hokimiyatini esa o'zini o'zi e'lon qilgan Favqulodda holat bo'yicha davlatkomiteti (GKChP) egallab olishga uringan edi. Bunday sharoitda SSSRning siyosiy hamda ijtimoiy hayotida yangi o'zgarishlarni e'tiborga olib, xalqaro normalarda nazarda tutilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib, O'zbekiston xalqining taqdiri uchun mas'uliyatni anglagan holda Oliy Kengash O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida bayonot bilan chiqdi. O'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengash 1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari tarixiy oltinchi sessiyasida qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi qarori bilan mazkur bayonotni tasdiqladi. O'sha kuniyoq, 1991 yil 31 avgustda Oliy Kengash "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" qonun qabul qildi. Bu qonun Oliy Kengashning ettinchi sessiyasida 1991 yil 30 sentyabrda Konstitutsiyaviy qonun maqomini oldi.

1991 yil 29 dekabrda Oliy Kengash qaroriga binoan o'tkazilgan O'zbekiston Prezidenti umumxalq saylovi va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha referendum O'zbekiston mustaqilligining tashkiliy-huquqiy negizini ta'minlash va mustahkamlash ishida o'ta muhim qadam bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Oliy Kengash mustaqillikka erishish sharoitida o'ziga xos siyosiy institut sifatida yangi davlatni barpo etishdek tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etdi va mamlakatimizda mustaqil davlatning huquqiy asoslarini shakllantirishdek muhim vazifani bajardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bejiz shunday demagan: "Hech bir mubolag'asiz aytilish mumkinki, xalqimiz irodasi hamda vakolati bilan

saylangan dastlabki Oliy Kengash davlatimiz va jamiyatimiz hayotida tarixiy burilishga asos soldi, poydevor qurdi va boshhardi".¹⁹

1992 yil Oliy Kengashning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilishi bilan Konstitutsiyaning "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" deb nomlangan bo'limida Oliy Majlis nomi bilan yangi mustaqil parlamentning shakllanishi uchun asos yaratildi va 1994 yilda ilk bor saylovlar bo'lib o'tdi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda esa: "Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning jaxondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston parlamenti – Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi"²⁰

Shu o'rinda yangi mustaqil parlament sifatida Oliy Majlis avvalgi Oliy Kengashdan ko'p jihatlari bilan tubdan ajralib turishini alohida ta'kidlash lozim. Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: "Oliy Majlis sobiq Oliy Kengashdan butun mazmun-mohiyati bilan farq qiladi. Uning shakllanishidan tortib, o'z faoliyatini tashkil etish tartiblari va ish usullarigacha buni yaqqol isbotlaydi"²¹.

"O'zbekiston Oliy Majlisining Respublika avvalgi Oliy Kengashidan birinchi farqi shundaki, Oliy Majlis birinchi marta ko'ppartiyaviylik asosida shakllandi.

Har bir siyosiy partiyadan saylangan deputatlar Oliy Majlisda partiya fraktsiyalarini tashkil etadilar. O'z partiyaviy fraktsiyasi orqali siyosiy partiyalar Oliy Majlisning qonun chiharish faoliyatida ta'sirchan qatnashib, shu tariqa davlat boshharuviga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Respublika Oliy Majlisining avvalgi Oliy Kengashdan ikkinchi farqi shundaki, Oliy Majlis deputatlarini shakllantirish sobiq Oliy Kengashni sinfiy printsip asosida soni va o'rnini avvaldan ko'rsatib shakllanishidan butunlay farq qilib, hozirda mavjud siyosiy partiya vakillaridan iborat nomzodlar orasidan muqobillik asosida saylanadi.

¹⁹ Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga etkazaylik: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiinnig o'n oltinchi ssssiyasidagi ma'ruza. -T: O'zbekiston. 1994. 3-b.

²⁰ Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. 3-tom. -Toshkent: O'zbekiston. 1996. 5-bet.

²¹ Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. 3-tom. -Toshkent: O'zbekiston. 1996. 19-bet.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining avvalgi Oliy Kengashdan uchinchi farqi shundaki, Oliy Majlis tarkibidagi deputatlarning ma'lum bir qismi Oliy Majlis to'zilmalari va uning qo'mitalarida doimiy ishlashga jalb etiladi.

Oliy Majlisning yana bir muhim farqli jihati shundaki, Oliy Majlis O'zbekistonning mustaqil tashqi siyosat olib borayotganligini qonunchilik darajasida ifodalab beradi. Oliy Majlisning o'zi, masalan, 1992 yilda Parlamentlararo Ittifoqqa a'zo bo'lib kirdi. Shuningdek, u Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi a'zosidir. Oliy Majlis O'zbekistonning jahondagi barcha parlamentlar bilan aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida o'z ho'zurida maxsus Parlamentlararo alohalar qo'mitasini tashkil qildi²².

Xulosa qilib aytganda, qonun chiharuvchi organning siyosiy tizimni isloh qilish va O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qaror toptirish sharoitidagi faoliyatini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda parlamentarizmga asos solgan institut vujudga keltirildi, amalda mamlakat davlat to'zishning poydevori bo'lgan qonunchilik bazasi yaratildi, shuningdek xalqaro huquqning umumiy e'tirof etilgan normalariga va O'zbekiston xalqining tabiatiga mos siyosiy to'zumni, mamlakatda fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikning kafiliga aylangan to'zumni izchil barpo etish jarayoni boshlandi.

²² Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – Toshkent: 2002. 96-97-betlar.

II.Bob. O'zbekistonda parlament instituti va uning jamiyat siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimidagi o'rni.

2.1. O'zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish va davlat hokimiyatini isloh etish jarayonida ikki palatali parlamentni shakllantirish jarayonlari.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan o'z oldiga fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etishni bosh maqsad qilib qo'ygan ekan, uni tavsiflovchi xamma xususiyatlar demokratik davlat talabiga javob berishi kerak. Har qanday demokratik davlatda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish instituti yuksak darajada rivojlanishi lozim, chunki u hokimiyatni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish institutini tan olar va kafolatlar ekan, avvalambor uning huquqiy asoslariga alohida e'tibor bermoq lozim. Ma'lumki, huquqiy asos ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Parlamenti qabul qilgan qonunlar orqali, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarni tegishli organ, tashkilot va muassasaning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq barcha masalalarni tartibga soladi.

O'tgan davr bir-biri bilan o'zviy bog'liq va bosqichma - bosqich amalga oshirilgan islohot va yangilanishlar zanjiridan iborat bo'ldi. Dastlabki yillar mustaqillikni mustahkamlashga sarflangan bo'lsa, bu vazifa asosan ado etilgach, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish sari odim qadam tashlandi. O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog'liq islohotlarning kun tartibiga qo'yilgani alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimizda parlament islohotlarini erkinlashtirish siyosatining mantiqiy davomi va demokratik taraqqiyotning navbatdagi pog'onasini tashkil etdi. Bu haqda parlament islohotlarini o'tkazish tashabbusini ilgari surgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: «Ikki palatali parlamentga o'tishdan

asosiy maqsad - parlamentning hayotimizdagi o'rnini oshirish, qonunchilik hokimiyatini kuchaytirishdir. Negaki, bunda parlamentimiz faoliyati yangi bosqichga ko'tariladi, uning vakolatlari ancha kengayadi. Avvalo, quyi palataning ishi ancha o'zgaradi. Bu palata ertaga doimiy faoliyat ko'rsatuvchi, professional organga aylanadi. Unga deputat bo'lib keladigan odamlar tarkibi ham, so'zsiz, o'zgaradi. Uning mohiyati, ishi, ko'riladigan masalalar, qabul qilinadigan qonunlar sifati o'zgaradi. Deputatlar bir chorakda yig'ilish bilan cheklanmasdan, hayotni chuqurroq o'rganadi, ularning siyosiy o'zgarishlar, islohotlarga ta'sir qilish imkoniyatlari kengayadi».

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ikki palatali parlamentni tashkil etish zarurati ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqimiz o'tish davrining qiyinchiliklarini engish bilan band bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotimizda barqarorlik qaror topib, keng ko'lamli rivojlanish pallasiga qadam qo'ymoqdamiz. Demak, endi bizga o'tish davri uchun emas, balki barqaror rivojlanish davri uchun xos bo'lgan mukammal qonunlar kerak.

O'zbekistonda 2005 yilga qadar ikki palatali parlament mavjud bo'lmagan. Shuning uchun parlament islohotlarini amalga oshirishda, ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog'liq qonunlarni ishlab chiqishda, bir tomondan, O'zbekiston siyosiy tizimining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jahon tajribasi chuqur o'rganildi. Jahon tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, oxirgi vaqtlarda parlament palatalari sonining o'sishi ko'zatilayotganini ta'kidlash joiz.

E'tiborlisi shundaki, dunyoning ilqor mamlakatlari ikki palatali parlamentning afzalligini tan olib, shunga mos ravishda o'z parlamentlarini islox qilganlar. AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Shveytsariya kabi mamlakatlar shular jumlasidandir.

O'zbekistondagi parlament islohotlari mamlakatimizdagi qonun chiharuvchi oliy organi faqatgina shaklan o'zgartirishga emas, balki uning faoliyatini

mohiyatan takomillashtirish, uni taraqqiy etgan davlatlar tajribasiga tayangan holda tashkil etishga yo'naltirilgan. Darhaqiqat, O'zbekiston parlamentining faoliyati professional asosga qurildi. Ya'ni, qonunlarni tayyorlash va qabul qilish bilan shug'ullanadigan quyi palata malakali yuristlar, iqtisodchilar, siyosatshunoslardan iborat bo'ldi. Oliy Majlisning qonunchilik palatasida qonunlarni ishlab chiqish deputatlar uchun asosiy mashg'ulot, kasb-korga aylandi. Soxasining bilimdonlari, yuqori malakali kadrlar, o'z kasbining ustalari, boshqacha aytganda, professionallarning quyi palatada doimiy ishlashi qonunlarning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar. Ko'rinib turibdiki, ikki palatali parlament qonun ustuvorligiga asoslangan huquqiy davlatni barpo etishning jahon tajribasida sinovdan o'tgan vositalaridan biri sanaladi.

Tabiiyki, O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ilmiy asoslangan yondoshuvni talab etadi, ayniqsa, professional parlamentni siyosiy institut sifatida o'rganish, uni shakllantirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash, ularni hal qilish choralarini ko'rish va istiqbolni belgilashni shart qilib qo'yadi. Bu siyosiy jarayonning qanday kechayotganini, unga ta'sir etgan omillarni siyosiy fanlar nuqtai nazaridan chuqur ilmiy tadqiq etish va zarur tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Bundan tashhari, O'zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari ilmiy tadqiq etishning dolzarbligi qator ob'ektiv sabablar bilan bog'liqdir. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish jarayonlari bu soxadagi jahon tajribasini o'rganishni taqozo etadi, rivojlangan demokratik mamlakatlar, xususan, g'arb davlatlari tajribasi misolida ikki palatali parlamentni shakllantirishning siyosiy asoslarini ilmiy taxlil qilish zaruratini tug'diradi.

- O'zbekiston Respublikasida ikki palatali parlamentni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bu jarayonning taraqqiyoti yo'nalishlarini

ko'ra bilish imkonini beradi hamda bu borada tashkiliy qarorlar qabul qilishda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

- professional parlament tizimining shakllanishi va rivojlanishida demokratik institutlarning o'rni va rolining taxlil etilishi asosida mamlakatimizda huquqiy davlat qurish sohasida olib borilayotgan islohotlarga ilmiy baho beriladi hamda O'zbekistondagi erkinlashtirish jarayonlari uchun puxta nazariy zamin yaratiladi.

- O'zbekistonda shakllantirilgan ikki palatali parlamentning ish sifati, parlament tomonidan qabul qilinajak qonunlarning mukammalligi xalqimiz tomonidan bu parlamentga kimlarning saylanishiga bevosita bog'liqdir.

Shunday qilib, O'zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollarini tahlil qilish hamda mazkur muammo yo'zasidan ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish hozirgi kunda siyosiy fan vakillari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekistonda parlament tizimi rivojlanib, ikki palatali parlamentga o'tish islohoti amalga oshirilgan bugungi kunda bu soxada mazkur o'zgarishlar mohiyatini yanada chuqurroq anglab etish uchun mamlakatimizda ilk qonun chiqaruvchi organni tashkil etish g'oyallari, uning tashkil topishi va bosib o'tgan yo'lini tarixiy izchillikda xolisona tahlil etish lozim.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi islohotlari shuni ko'rsatdiki, mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish uchun nafaqat kuchli davlatchilikni shakllantirish va davlatning islohotchilik o'rnini kuchaytirish, balki jamiyat va uning institutlarini ham demokratik qadriyatlar talablari darajasida rivojlantirish zarurligini islohotlar tajribasi isbotlab berdi. Bir palatali parlament davrida siyosiy partiyalar jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini ifodalash va himoya qilish darajasiga ko'tarila olmaganligi, mintaqaviy manfaatlarini shakllantiruvchi, ifodalovchi siyosiy institutlarning hali shakllanmaganligini hayot ko'rsatdi. Bu soxadagi bo'shliqni ikki palatali parlament barpo etish bilan to'ldirish mumkinligi anglab etildi.

Parlamentning yuqori palatasi mintaqaviy manfaatlarni ifodalash, himoya qilish, har bir mintaqa manfaatlarini o'zaro kelishtirish, ularni qabul qilinayotgan qonunlarda e'tiborga olish kabi jamiyatdagi turli mintaqaviy intilishlar uchun asos bo'lgan manfaatlarni kelishtirish funktsiyalarini bajarib, jamiyat bilan qonun chiharuvchi hokimiyatning yanada tashabbuskor guruxlar nomzodlari asosida shakllanib, bir tomondan, siyosiy partiyalar mas'uliyati va o'rnini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, siyosiy partiyalar o'z funktsiyalarini demokratik qadriyatlar asosida (ayniqsa, jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlarining ifodachisi bo'lish funktsiyasini) bajarishga kirishadilar va jamiyat bilan davlat hokimiyatining to'la ma'nodagi uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

XX asrning so'nggi o'n yilliklari tajribasi ko'rsatganidek, ikki palatali parlament fuqarolik jamiyati shakllanishining huquqiy va siyosiy asoslarni yaratishga kengroq imkonlar beradi. Shu bois, mamlakatda birinchi bo'lib ikki palatali parlament to'zish g'oyasini Prezident Islom Karimov ilgari surdi. 2000 yil 23 yanvarda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning II sessiyasida jurnalistlar bilan uchrashuvida Prezident Islom Karimov O'zbekistonda ham ikki palatali parlament tashkil qilish, uni shakllantirish vaqti kelganini, bo'lg'usi parlament tarkibi ikki palatali bo'lishi lozimligini keng jamoatchilik uchun e'lon qildi. Mamlakat xalqi bu g'oyalni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan kutib oldi.

Tarixdan ma'lumki, utopik g'oyallarni ro'yobga chiharishga da'vo qilgan bolsheviklar amalga oshirgan davlat to'ntarishidan so'ng mutlaqo yangi to'zum o'rnatildi, yangi boshharuv tizimi to'zildi. Biroq mamlakatimiz hududida parlament tizimi, qonun chiharuvchi organni shakllantirish yo'lidagi ilk urinishlar va harakatlar xususida so'z borganda, bu jarayon hisobini sovet davridan boshlash yoki unga bog'lash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. Chunki tarixiy dalillar bizning o'lkada bu masalada bolsheviklardan avvalroq ancha jiddiy sa'iy-harakatlar olib borilganligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda qonun chiharuvchi organ Angliyadagidek XIV asrda shakllana olmadi. Chunki mamlakatda asrlar davomida rivojlanib kelgan milliy davlatchilik

tizimida jamiyat shariat qonunlari asosida, yakka hukmron xonlar, amirlar tomonidan taxt vorisligi asosida boshqarilar edi. Garchi davlat boshharuvida vazifalar aniq taqsimlangan bo'lib, xon ho'zuridagi nufo'zli, e'tiborli amaldorlardan to'zilgan kengashda davlat ishlari maslahatlashib turilgan bo'lsada, amaldorlar, qozilar yuqoridan tayinlanar, saylovlar, qonun chiharuvchi organlar haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi.

XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning suveren davlat sifatida shakllanishida, demokratiya tamoyillarini ilk bor qo'llanilishi, o'zbek milliy davlatchiligini yo'zaga keltirishda tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, «xech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, xalqimiz irodasi hamda vakolati bilan saylangan dastlabki Oliy Kengash davlatimiz va jamiyatimiz xayotida tarixiy burilishga asos soldi, poydevor qurdi va boshqardi».

XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga bo'lib o'tgan saylovlar oldingilaridan tubdan farq qilib, ilk bor doimiy ishlovchi organ sifatida besh yil muddatga Markaziy saylov komissiyasi tashkil etildi, bitta partiya sharoitida bo'lsa ham deputatlikka nomzodlarni ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan sub'ektlar doirasi kengaytirildi (asosan turli xildagi mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari nomzod ko'rsata boshladilar), bir mandat uchun saylov okruglarida bir nechta nomzodlar kurash olib borishlari qonunan ruxsat etildi, birinchi marta davlat hokimiyati oliy va mahalliy organlarining vakolatlari muddatlari tenglashtirildi.

Oliy Kengashning tarixda muhrlanishining yana bir sababi, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylandi, «Mustaqillik deklaratsiyasi» e'lon qilindi, «O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, qonunchilik va tashkilotchilik borasida izchil faoliyat yuritib, mamlakatimiz turmushining barcha soxalarini islox qilishga doir muhim vazifalar hal qilindi. Bundan tashhari, XII chaqiriq davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qonunchilik va tashkilotchilik borasida izchil faoliyat yuritib, mamlakatimiz

turmushining barcha soxalarini islox qilishga doir muhim vazifalarni hal qilib berdi. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi, «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar saylov tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

«O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun, «Vazirlar Maqkamasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat organlarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunlar majmuasining qabul qilinishi nafaqat hokimiyat organlari orasidagi chegaralarni belgilash va ajratish, balki ularning davlatizimidagi vazifalari, o'zaro munosabatlarni me'yorlash tamoyillariga asos solib, davlat hokimiyatining pishiq-puxta institutlarini to'zish sari tashlangan muhim qadam bo'ldi. Saylov tizimini takomillashtiruvchi qator qonunlar qabul qilindi, hokimiyat organlari orasidagi chegaralarni belgilash va ajratish, ularning davlat tizimidagi vazifalari, o'zaro munosabatlarni me'yorlash tamoyillariga asos solindi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, sovet imperiyasining parchalanishi va O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasida yangi mustaqil davlat sifatida shakllanishidagidek murakkab davrda aynan Oliy Kengash yangi davlatchilik tizimiga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minladi va buning oqibatidagi o'zgarishlar jarayonining qonuniy, legitim bo'lishiga erishildi.

Xullas, tarixiy va siyosiy o'zgarishlar ro'y berayotgan murakkab davrda aynan Oliy Kengashning bir nechta muhim jihatlari namoyon bo'ldi.

Birinchidan, yangi davlatchilik tizimiga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minladi, (ba'zi qo'shni davlatlaridagidek beqarorlikni keltirib chihargan parlamentlar yodimizda) va buning oqibatida o'zgarishlar jarayoni qonuniy, legitim bo'lishiga erishildi.

Ikkinchidan, o'tish davrida Prezident - Parlament - hukumat formulasi asosida o'zaro kelishib ish yuritish qonunchilik ijodkorligi ruhida ishlash, muammolarni bahs va munozara orqali echish yo'li tutilgani qiyinchiliklarni hamjihatlikda engish hamda jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, Oliy Kengash faoliyati davomida O'zbekiston hayotida o'ta muhim bo'lgan masalalarni echish, ushbu jarayonlarni xalq ko'z o'ngida kechishi fuqarolarning davlatchilik qurilishidagi faol ishtiroki, Oliy hokimiyat organlarining nufo'zi oshishiga ko'maklashdi.

“O'zbekiston Respublikasida parlamentning qonun chiharuvchi organ sifatida shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik o'zbek milliy davlatchiligini tarixiy rivojlanishi bilan o'zviy bog'liqdir”²³. Zero, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kunlaridan boshlab demokratik huquqiy davlat qurish yo'lini tanladi va bu yo'lda ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan izchil siyosat olib bormoqda.

O'zbekiston oliy davlat vakillik organi - mazmun va mohiyat jihatidan mutlaqo yangi bo'lgan parlamentni shakllantirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ydi. Chunki, yuqorida e'tirof etganimizdek, sobiq sovet davridagi parlamentning faoliyat yuritish mexanizmi ham, unga o'tkaziladigan saylovlarning mazmun-mohiyati, shaklu shamoyili ham yangi davr, yangi zamonga mos kelmay qoldi. Va shu bois 1994 yilda ilk bor ko'ppartiyaviylik asosida bo'lib o'tgan saylovlar natijasida bir palatali, 250 nafar deputatdan iborat Oliy Majlis tashkil topdi.

Taraqqiyotning bosqichma-bosqich tamoyilini ma'qul topgan O'zbekiston parlament islohotida ham ana shunday yo'l tanlandi. Islohotlar endigina boshlangan dastlabki yillarda fuqarolik jamiyati, umuman davlatchilikning huquqiy poydevori endigina yaratilayotgan mas'uliyatli bir pallada parlamentchilikning bir palatali modeli qabul qilindi. Sababi, jahon tajribasi

²³ E.H.Xalilov. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar.—T.: O'zbekiston, 2001.—348 b.

ko'rsatayotganidek, bir palatali parlament hali etarli huquqiy bazasi shakllanmagan, turli soxalar bo'yicha qonunlar tanqisligi sezilayotgan yosh davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunda qonun yaratuvchilik jarayoni tezlashadi, mobil va ixcham shaklga ega bo'ladi hamda o'ziga xos jo'shqinlik yo'zaga keladi.

1995 yildan to 2000 yilga qadar Oliy Majlis tomonidan fundamental xususiyatga ega bo'lgan 10 ta kodeks, 2 ta Milliy dastur, 138 ta qaror va turli yo'nalishlardagi 468 ta qonun qabul qilindi. Bu normativ huquqiy hujjatlar O'zbekistonning keyingi taraqqiyoti uchun o'ziga xos asos vazifasini o'tadi²⁴. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki bosqichida bir palatali parlamentning ijobiy tomonlaridan to'liq foydalana oldi.

O'zbekiston parlamenti xususida ko'plab fikrlar bildiriladi. Ular orasida ijobiylari ham, tanqidiylari ham bor. Xususan, doktor L. Levitin o'zining «O'zbekiston tarixiy burilish pallasida» nomli kitobida Oliy Majlisning doimiy ishlaydigan organ ekanligini aytib, unda deputatlar professional tartibda faoliyat ko'rsatmasliklarini uqtiradi.

To'g'ri, birinchi va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisi faqat sessiyalar davomida faoliyat yuritgan bo'lsada, u o'zining vakolatlarini, vazifalarini imkon qadar to'la amalga oshirdi, deb aytish mumkin. Zero, deputatlarning barchasi Parlamentda doimiy ishlamasa ham, ularning ma'lum qismi muntazam faoliyat ko'rsatuvchi yaxlit organ - Oliy Majlisning qo'mita va komissiyalari tarkibida, ishchi organ - sessiyalar oralig'ida qonun yaratish jarayonini boshqardilar. Bundan tashhari, yil davomida Oliy Majlisning kollegial rahbar organi - Kengash, turli soxalarga ixtisoslashgan 13 ta qo'mita va 3 ta komissiyasi muntazam faoliyat yuritdi. Turli masalalar, xususan, qonun yaratish jarayonlari bo'yicha Oliy Majlisda uchrashuv, mo'zokaralar, majlislar, muhokamalar, fraktsiyalar yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

²⁴ Anorboev A.B., Yo'ldoshev A.A. O'zbek parlamenti: taraqqiyot, bosqichlari; kelajakka nazar. – Toshkent: 2002 – 75-bet.

Albatta, bu hol Parlamentni takomillashtirish zaruriyatini inkor eta olmaydi, aksincha uning professional asosda ishlashini ta'minlash uchun ikki palatali tizimga o'tish zaruriyati - bugungi kun talabi va bu boradagi taraqqiyotning zaruriy ehtiyoji ekanligini alohida ta'kidlash joiz.

Mamlakatimizda ikki palatali parlament tashkil etish zaruriyati va unga yetarli sharoit tug'ilganligi hamda u qanday bo'lmog'i kerak ekanligi to'g'risida ilk bor Prezidentimiz I.A.Karimov 2000 yil 25 mayda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida taklif kiritgan va uning asosiy konturlarini belgilab bergan edi²⁵. Milliy parlamentarizmni rivojlantirish va yanada takomillashtirish maqsadida yaqin istiqbolda ikki palatali qonun chiharuvchi organ yaratish lozimligi asoslab berildi. O'zbekiston siyosiy ijtimoiy taraqqiyotining navbatdagi bosqichi bir palatadan ko'ra murakkabroq bo'lgan, ijro etuvchi va qonun chiharuvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatning yanada barqaror bo'lishini ta'minlash maqsadida - ikki palatadan iborat qonun chiharuvchi idora tashkil etilishini taqozo etardi.

Xalqimiz 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendumda faol ishtirok etib, milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi muhim vazifalardan birini hal qilib, demokratiyani yanada rivojlantirish va huquqiy davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish istiqbollarini ko'zlab referendumda tarixiy qaror qabul qildi. Ya'ni, referendumga kiritilgan masalalardan biri bo'lgan respublikamizda ikki palatali parlamentni tashkil etilishi masalasiga o'zining ijobiy munosabatini bildirdi.

Parlament islohotlarining asosiy omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- hozirgi davrga qadar deputatlar doimiy asosda ishlashlari uchun ob'ektiv sharoitlar mavjud emas edi. Bugungi kunda professional parlamentga o'tish uchun siyosiy-ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar vujudga keldi;

²⁵ I.A.Karimov. O'zgarish va yangilanish – hayot talabi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutqi // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. T.: "O'zbekiston", 2000. – 528 b.

- professional asosda faoliyat ko'rsatishga tayyor siyosatchi, huquqshunos va qonun ijodkorlarining tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega etarli qatlami shakllandi;

- xorijiy davlatlar tajribasidan foydalangan holda milliy parlamentchilik an'analari, qonunlarni qabul qilish uslublari shakllandi;

- ko'ppartiyaviylik tizim shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi parlament taraqqiyotiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlarda tashkiliy va markaziy o'rin tutadi. Shuning uchun mamlakatimiz taraqqiyotining poydevorini yaratuvchisi parlament islohotlarini uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- parlamentni shakllantirish tartibini yangilash (saylov tizimi va saylov huquqi);

- qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirish;

- davlat hokimiyati organlari tizimida parlamentning tutgan o'рни va (vakolatlari doirasi) jamiyatdagi siyosiy rolini oshirish.

Birinchi guruh - parlament islohotlari quyidagi tartibda amalga oshirildi:

- saylovlar muqobillik asosida;

- saylovlar ko'ppartiyaviylik asosida;

- parlament a'zolarining kasbiy ixtisoslashtirilishi (qo'mitalarga bo'linishi);

- partiya fraktsiyalari va deputatlar guruhlar.

Ikkinchi guruh parlament islohotlari – qonunchilik jarayonlarining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq bo'lib:

- milliylikka xos ichki tashkiliy to'zilishi;

- masalalarni muhokama qilishda mafkuraviy bahs-munozaralardan voz kechgan holda, vakillik va qonunchilik printsiplariga tayanildi;

- parlamentarizmning milliy urf-odatlar shakllantirildi.

Jamiyat manfaatlarining ifodachisi bo'lmish parlament aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhlarining vakillaridan tashkil topadi. Dunyodagi barcha demokratik davlatlarning parlamentlari o'z mamlakatlarida muhim ijtimoiy vazifa - vakillik funksiyasi asosida qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradilar.

Muxtaram Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Parlament - bu jamiyat hayotini oynadek yaqqol aks ettiradigan ko'zgu. Binobarin, jamiyatda qanday intilish, fikr va harashlar mavjud bo'lsa, ular parlamentdagi muhokama va munozaralarda o'z aksini topishi kerak. Ana shunda parlament xalqning hoxish irodasi, ezgu maqsadlarini mujassam eta oladi».

Parlamentimizning ikki palatali bo'lishi huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan mamlakatimiz uchun yangi muhim bosqich bo'ldi. Shu o'rinda ikki palatali parlamentning afzalliklari, uning demokratlashtirish jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri masalasiga to'xtalib o'tish lozim.

Yuridik fanlar doktori E. Xalilov fikricha: «qonun chiharuvchi oliy organda ikkinchi palataning to'zilishi mintaqalarning ta'sirini sezilarli darajada oshiradi. Parlament qabul qilayotgan hujjatlarda xalqning hoxish irodasi ko'proq namoyon bo'lishiga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida, qonunchilik faoliyati sezilarli darajada rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Parlament ishida demokratiya va fikrlar xilma-xilligi ko'proq namoyon bo'ladi. Umuman, ikki palatali parlament tizimiga o'tish davlat hokimiyatining barcha tizimlariga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Fuqaroviy jamiyat qurish yo'lida muhim shaxdam odim bo'ladi».

Olimning yuqoridagi fikrlarini respublikamizdagi boshqa tadqiqotchilar ham ta'kidlaganlar. Ya'ni, fuqarolik jamiyati qurishda ikki palatali parlamentni shakllantirishning ahamiyati haqida ko'p fikrlar bayon qilingan. Zero, fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti siyosiy tizimni muttasil takomillashtirib borishdan iboratdir. Uning maqsadi tom ma'noda xalq hokimiyatini o'rnatish, chinakam o'zini o'zi boshqarish, fuqarolarning tashabbuslarini keng ko'lamda rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, kishilarning siyosiy faolligini oshirishga erishishdir.

«Qonunchilik hokimiyatining zamonaviy faoliyati, ya'ni uning professionallik asosida faoliyat yuritishi tufayli, - deb yozadi tadqiqotchi U. Hotamov, - nafaqat xalqaro normalar talabiga javob beruvchi demokratik

qonunlar yaratiladi, balki parlamentning o'zi ham turli siyosiy guruxlar, ijtimoiy tabaqalar, ma'muriy hududlarning manfaatlarini o'z vakillari orqali himoya qilinishi uchun ochiq sahna bo'lib xizmat qiladi. Ushbu siyosiy manfaatlar kurashining jamiyat ko'z o'ngida namoyon bo'lishi - jamiyat a'zolarining siyosiy, huquqiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Ularni tinchlik sharoitida parlament usulida o'z siyosiy manfaatlarini himoya qilishga o'rgatadi, oqibatda fuqarolik jamiyatining muhim institutlariga o'z mavqelarini yanada mustahkamlab olishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi».

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda qator mamlakatlarda ikki palatali parlamentning bir palatali parlamentdan ko'ra qator afzalliklarga ega ekanligi tan olingan. Xususan, 2000 yilning 14 martida Parij shaxrida bo'lib o'tgan jahon senatlarining maxsus anjumani qonun chiharuvchi organlar ikki palatali tizimining tahliliga, uning demokratik hamda huquqiy davlat barpo etishdagi o'rniga baqishlandi. Anjumanda bo'lib o'tgan barcha bahslarning xulosasi shundan iborat-ki, ikki palatali parlament mintaqalarning, kichik to'zilmalarning, mamlakatning o'zoqda joylashgan qismlarining manfaatlariga rioya etilishiga olib keladi. Ikkinchi palata qonunlar chiqarish jarayonida uchraydigan engil-elpi, tor doiradagi manfaatlarga qarshi turuvchi qo'shimcha filtr vazifasini o'taydi. Ikki palatali tizim ijroiya hokimiyati bilan bir palatali parlament o'rtasidagi ortiqcha tortishuvlarning oldini oladi hamda parlament va hukumat vakolatlarining aralashib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Ta'kidlash joizki, respublikamizdagi hamda jahondagi bir qator olimlar ikki palatali parlamentni shakllantirishni huquqiy davlat qurilishining eng samarali vositalaridan biri deb e'tirof etganlar. Zero, huquqiy davlat mukammal qonunlar yaratishni taqozo etadi. Shu bois, bir qonunning «ikki qo'ldan o'tishi», ya'ni ularning har ikkala palata vakillari tomonidan ko'zdan kechirilishi ham qonunlarning mukammalligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tabiiyki, yuqori palataning vazifasi faqat qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini qo'shimcha nazorat qilishdan iborat bo'lmaydi. Aslida parlamentning ikki palatali qilib

shakllantirilishi natijasida palatalar o'rtasida vakolatlarning taqsimlanishi muammosi yo'zaga qalqib chiqadi. Bir vaqtlar bu masala ko'plab bahslarga sabab bo'lgan. Biroq vaqt o'tishi bilan parlament palatalari o'rtasidagi vakolatlar taqsimotida muvozanatga erishildi.

Shuningdek, mashxur ingliz olimi I.Bentam ham ikki palatali parlamentning afzalliklari va kamchiliklari haqida to'xtalib o'tadi. Olim palatalar tarkibi turlicha bo'lganligi tufayli parlament ikki qutbga ajralib qolishi mumkinligini, bitta qonunga nisbatan ikki palatada ikki xil ma'lumotlar mavjud bo'lishini, qonun qabul qilish jarayonining cho'zilib ketishini, quyi palataning asosan, qonunchilik tashabbusi bilan, yuqori palataning esa faqat qabul qilingan qonunlarni ko'rib chiqish bilan shug'ullanishi ular o'rtasida kelishmovchiliklar keltirib chiqarishini ikki palatali parlamentning kamchiligi sifatida baholaydi.

Biroq shunday bo'lsada, I.Bentam bir palatali parlamentdan ko'ra ikki palatali parlament ko'proq samarali ekanligi haqida xulosalar chiqaradi. Xulosa qilib aytganda, qabul qilingan qonunlarning yana bir marta yuqori palata tomonidan ko'rib chiqilishi qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtiradi, qonunlarni jiddiy muhokamalardan so'nggina qabul qilinishiga zamin yaratadi.

Shu o'rinda parlament nafaqat qonun chiqaruvchi organ, balki oliy vakillik organi ekanini ham eslatib o'tish lozim. Shu jihatdan parlamentning ikki palatadan iborat bo'lishi bu demokratik institut sifatida fuqarolarning keng ko'lamdagi vakilligini ta'minlaydi. Chunki faqat partiyaviy asosda bunday vakillikni ta'minlash mumkin emas. Boz ustiga o'z hududining manfaatlari haqida qayg'uradigan kishilarning Senatdan o'rin olishi qonunlar qabul qilishda partiyaviy manfaatlardan emas, umumdavlat manfaatlar ustuvorligidan kelib chiqilishini ta'minlaydi. Parlamentning ikki palatali asosda to'zilishi xalq vakillarining saylovchilar oldidagi majburiyatlarini unutishdan ham saqlaydi. Chunki mintaqaning tashvishlari bilan band bo'lganligi tufayli ham yuqori palata vakillari parlamentning hayot bilan, xalq bilan muloqotini ta'minlaydi.

2005 yilga qadar O'zbekistonda amal qilgan bir palatali parlament tizimi, ya'ni qonun chiharuvchi va ijro etuvchi hokimiyatning uyg'un faoliyat ko'rsatishi qabul qilinayotgan qonunlarning ijrosi ustidan nazorat qilish imkoniyatini ma'lum ma'noda cheklayotgan edi. Chunki ijro hokimiyati vakillari deputatlarning ko'pchilik qismini tashkil qilar edi. Ammo ko'pchilik deputatlarning bir vaqtning o'zida qonun chiharuvchi va ijro etuvchi hokimiyat vakili bo'lishining o'zi parlamentning samarali ishlashi va qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlashga etarli darajada imkon berayotgan edi. Aslida, o'zida chinakam demokratik qadriyatlarni shakllantirgan davlatlarda bir vaqtning o'zida hokimiyatning qonun chiharuvchi va ijro etuvchi tomonlarga a'zo bo'lish tajribasi juda ko'p uchraydi. Bundan tashhari, totalitarizmdan demokratiyaga o'tish tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyatning mukammal siyosiy tizimini yaratish ko'plab bosqichlarni boshdan kechirishni, etarli muddatlarni talab qiladi. Bu murakkab jarayondan eson-omon o'tishning asosiy imkoniyati - demokratik qadriyatlarning muhim mexanizmi — ikki palatali parlament uchun zamin tayyorlash va uni shakllantirish hisoblanadi.

Bir qator afzalliklarga ega bo'lgan ikki palatali parlament tizimiga o'tish O'zbekiston uchun ayni muddaodir. Zero, bugungi kunga kelib, ikki palatali parlamentni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Birinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda ikki palatali professional parlament uchun kerak bo'lgan professional korpus - yuqori malakali siyosatshunoslar, huquqshunoslar, iqtisodchi mutaxassislar etishib chiqdi.

Ikkinchidan, jamiyat a'zolarining ongidagi sobiq to'zumdan qolgan eskicha harashlar barham topdi. O'tgan vaqt davomida ularning huquqiy va siyosiy ongi yuksalib bordi. Saylov instituti takomillashdi, saylovga doir qonunchilik bazasi mustahkamlandi.

Uchinchidan, siyosiy munosabatlarning yangi sub'ektlari vujudga keldi. Davlat boshharuviga bevosita ta'sir ko'rsata oladigan siyosiy partiyalar shakllandi, nodavlat, nohukumat tashkilotlar, xususiy mulkdorlar va tadbirkorlar tabaqasi vujudga keddi.

To'rtinchidan, davlat hokimiyatini tashkil etishning ma'muriy buyruqbozlik usullari barham topdi. Boshqacha aytganda, boshharuv usullari totalitar elementlardan xalos bo'ldi.

Va nihoyat, O'zbekiston Respublikasida jahonning eng ilg'or mamlakatlari tajribalaridan unumli foydalanish uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi.

Bir so'z bilan aytganda, ikki chaqiriq davomida faoliyat ko'rsatgan Oliy Majlis ikki palatali parlamentni vujudga keltirish uchun zamin yaratib berdi. Shuningdek, professional parlamentning demokratik taraqqiyot uchun hayotiy zaruriyat ekanligini vaqt ko'rsatdi. Ayniqsa, bu zaruriyat quyidagilarda ko'zga tashlandi:

Birinchidan, parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarning u yoki bu viloyatda ijrosi masalasi muhokamasi va u yo'zasidan qabul qilinayotgan qarorlar keskin bahs-munozaralarsiz qabul qilindi, deyish mumkin.

Ikkinchidan, fraktsiyalar davlat va jamiyat hayotiga doir qonunlarni qabul qilishda muqobil fikrlar va qarashlarni ilgari sura bilishlari lozim bo'ldi. Albatta, bu ular bir-birlarining fikrlarini asossiz ravishda inkor qilishi kerak, degani emas. Balki fraktsiyalar fikrlar xilma-xilligini vujudga keltirishlari va shu asosda qabul qilinadigan qonunlarning hayotiyligini, hamda ularning ijrosini ta'minlashlari zarurati tug'ildi.

Uchinchidan, parlament hukumat tomonidan taklif etilayotgan qarorlar va hujjatlarni har tomonlama chuqur o'rganishi va kerak bo'lsa, qayta ishlashga yuborishi ham demokratik qadriyatlar mezonini tashkil etadi. Jumladan, byudjetni qabul qilish, uning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi va ijrosi masalalarida taklif qilinayotgan muqobil variantlarni muhokama qilishdek o'ta muhim jarayonlar parlament faoliyatida muhim yo'nalishlardan birini tashkil qiladi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish vazifalarini inobatga olib chet mamlakatlar tajribasidan parlament ishining samaradorligini oshirish ehtiyojlarini

o'rganish asosida ikki palatali parlamentning tegishli qonunchilik negizini shakllantirish yo'zidan muayyan ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonining yangi bosqichining boshlanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" nomli ma'ro'zasida belgilangan ustuvor g'oyalar va vazifalar muhim o'rin tutadi. Xususan, Prezident I.A.Karimov tomonidan ushbu kontsepsiya doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan demokratik o'zgarishlar bo'yicha takliflar berar ekan, ushbu jarayonda siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvidagi ta'siri va rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratdi.

Jumladan Prezident I.A.Karimov quyidagi takliflarni ilgari suradi:

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi²⁶. Ushbu takliflar 2011 yilda konstitutsiyaga kiritilgan normalar asosida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Umuman olganda, mamlakatimizda amalga oshirilgan parlament islohotlari:

- parlamentning roli va ta'sirini kuchaytirish;
- qonun chiqarish jarayonini demokratlashtirish;
- qabul qilinayotgan qonunlar sifati va samaradorligini oshirish;
- jamiyatni demokratlashtirish va yangilashning "Kuchli davlatdan – kuchli

fuqarolik jamiyati"ga o'tishning mustahkam qonuniy asoslarini yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligini mustakamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish, mustaqil tashqi siyosat bilan bog'liq masalalarning hal etish printsiplarining amalga oshirilishi qisqa davrda to'liq shakllantirilganligi diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi kontseptsiyasida mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'limiz va to'plagan tajribamizni xolisona baholash, qo'lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish, mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan modelning naqadar to'qri ekanini va shu yo'ldan bundan buyon ham og'ishmay qat'iyat bilan borishimiz zarurligi t'akidlab o'tilgan edi.

Ushbu ustuvor maqsadlardan kelib chiqib davlatimiz raqbari O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 21 yilligiga baqishlangan tantanali majlisda "Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir" ma'ruzasida belgilab berilgan bugungi globallashuv zamonida, dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotgan bir sharoitda o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud

²⁶ Kapimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. T.: "O'zbekiston" 2010. b 11-13.

hokimiyatining mustaqilligini, soʻz va axborot erkinligini, saylov erkinligini ta'minlash, saylov tizimini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi g'oyalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddolari (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalari)ga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar hokimiyat va boshqaruv tizimini yanada demokratlashtirish, "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini ro'yobga chiqarishdagi huquqlari hamda vakolatlarini kengaytirish, Oliy Majlisning hokimiyat vakillik organlari, Vazirlar Mahkamasi va ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan nazorat qilishi, shuningdek, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish uchun hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida kiritilgan.

78-moddaning 21-bandi:

Avvalgi tahrir

O'zbekiston Respublikasining
Konstitutsiyasida nazarda tutilgan
boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Yangi tahrir

**parlament nazorati va ushbu
Konstitutsiyada nazarda tutilgan
boshqa vakolatlarni amalga
oshirish.**

Ikki palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo'yicha 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish, qonun ijodkorligining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishishdan iborat edi. Bu borada

tarkib jihatidan asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil topgan yuqori palata — Senatning hududlar manfaatlarini ifoda etishi, quyi — qonunchilik palatasi esa o'z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshirishi hisobga olinganini aytib o'tish lozim.

Ta'kidlash kerakki, milliy parlamentimizning rivojlanishida yangi parlament va uning har bir palatasining maqomi, vakolatlari va faoliyat mexanizmlari aniq belgilab berilgan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning 2003 yilda qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi²⁷.

Xususan, Kontsepsiya asosida parlament vakolatlarini yanada kengaytirish va parlament nazoratining kontseptual jihatdan yangi shakllari, ya'ni ishonchsizlik votumi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazir hisobotlarini eshitish va muhokama qilishni nazarda tutuvchi qonunning qabul qilinishi parlament nazorati shakllarini amaliyotga yanada samarali tatbiq etish imkoniyatini yaratdi.

Chunonchi, Oliy Majlis palatalari qo'mitalarining 2010-2011 yillardagi nazorat-taqlil tadbirlari taqlili shuni ko'rsatadiki, qayd etilgan muddat oralig'ida Oliy Majlis palatalarining nazorat-taqlil tadbirlari salmoqli darajada oshgan.

Parlament nazorati davlat nazorati turlaridan biri bo'lib, asosiy konstitutsiyaviy tamoyillardan hisoblanmish hokimiyatlar bo'linishi tamoyili, shuningdek, o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining muhim shartidir. Parlament nazorati parlamentarizmning mustaqil instituti hisoblanib, u nafaqat qabul qilingan qonun hujjatlarining ijro etilishini, balki ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish orqali fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari muqofazasini ham ta'minlaydi.

²⁷ Kapimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. T.: "O'zbekiston" 2010. 6 bet

Shuningdek, parlament nazorati keng ma'noda xorijiy mamlakatlar parlamentarizm amaliyotida ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati, shu bilan birga byudjet siyosati hamda davlat faoliyatining boshqa muhim sohalari ustidan kompleks nazorat tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Parlament nazoratining boshqa davlat nazorati turlaridan asosiy farqi quyidagilardan iborat.

birinchidan, oliy davlat vakillik organi, qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan amalga oshirilishi;

ikkinchidan, hokimiyatlar o'rtasidagi "o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash" tizimi vositasi bo'lib xizmat qilishi;

uchinchidan, ushbu nazoratning asosiy ob'ekti ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ekanligi;

to'rtinchidan, uning jamiyat va davlat hayotida ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etishi;

beshinchidan, o'zining demokratikligi, ochiq va oshkoraligi, partiyalar va elektorat manfaatlarini uyg'unlashtirganligi, jamoatchilik fikri va kuchiga tayanishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Parlament nazoratining mohiyati boshqa an'anaviy nazorat turlaridan farqli ravishda faqatgina nazorat bilan cheklanib qolmay, balki parlament nazorati yakunlari bo'yicha aniqlangan amaldagi qonun hujjatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan zarur choralar ko'rilishini ham ko'zda tutadi.

Konstitutsiyaga kiritilgan ushbu o'zgartirish bugungi kunda mamlakatimizda ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning samarali mexanizmlari shakllantirilganligidan dalolat beradi. Xususan, parlament nazoratining o'ziga xos jihatlari va amalga oshirish mexanizmlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topdi.

Bosh qomusimiz parlament nazoratining konstitutsiyaviy asoslarini belgilab, uning eng muqim shakllarini o'zida ifoda etgan. Xususan, yuqorida

ta'kidlanganidek Konstitutsiyamizning 78-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash; O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish kabilar belgilangan.

Mamlakatimizda shakllangan parlament nazorati amaliyoti taraqqiyotning "o'zbek modeli" milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan qolda rivojlangan demokratik davlatlarning ilg'or tajribasiga tayanishini ham e'tirof etish lozim. Xususan, xorijiy davlatlar amaliyoti parlament nazoratining "hukumat soati", parlament tekshiruvi va parlament eshituvi kabi shakllari ham amalda keng qo'llanib kelinayotganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, "hukumat soati" hukumat a'zolari, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlari tegishli raqbarlarining aniq belgilangan kunda deputatlar savollariga javob berish uchun taklif qilinishi hamda mazkur nazorat yakunlari bo'yicha maxsus qaror qabul qilinib, unda ijro hokimiyati organlari uchun tegishli tavsiyalar berilishini nazarda tutadi.

Qolaversa, Buyuk Britaniyada parlament so'rovlarini elektron tarzda, ya'ni davlat organlari uchun joriy etilgan maxsus tarmoq orqali taqdim etish amaliyoti mavjud bo'lib, 2010-2012 yillar oraliqida parlament so'rovlarining 46 foizga yaqini elektron tarzda amalga oshirilgan. Frantsiyada esa parlament so'rovlarining ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etish amaliyoti shakllanganligi ham e'tiborga molik.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, parlament nazorati mavjud shakllarning yanada takomillashtirilishi hamda yangi zamonaviy shakllarning milliy amaliyotga joriy etilishi qonun hujjatlarini hayotga to'la-to'kis tatbiq etishga va ularni yanada rivojlantirishga, bu boradagi kamchiliklarni hamda ijtimoiy munosabatlarni huqu-

qiy tartibga solishda yuzaga keladigan huquqiy ehtiyojlarni aniqlashga, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining samaradorligini oshirishga, eng muhimi, bevosita fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini muqofaza qilish mexanizmining yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

93-moddaning 7-bandi:

Avvalgi tahrir

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy qayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi.

Yangi tahrir

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga zikr etilgan tuzatishlarni kiritish taklif etilayotgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78- va 93-moddalariga ham tegishli o'zgartishlar kiritish zarurati tug'iladi²⁸.

Davlat boshlig'i jamiyat va davlatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarning tahlilini, ularning yuzaga kelish sabablari va oqibatlarini to'liq tasavvur qila olishi, buning uchun ham zarur chora-tadbirlarni ko'rishi lozimligi tufayli konstitutsiya va qonun ustunligi printsiplariga asosan qonun ijodkorligi sohasida qator vakolatlarga ega.

Odatda, hukumat ijro etuvchi hokimiyatning markaziy organi bo'lib, u Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

²⁸ Kapimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. T.: "O'zbekiston" 2010. 9 bet

93-moddaning 10-bandini:

Avvalgi tahrir

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi va uni iste'foga chiqqanda, Bosh vazirga lavozimidan ozod qiladi;

Yangi tahrir

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi hamda uni iste'foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilinganda yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa qollarda lavozimidan ozod qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro hokimiyati faoliyatini tashkil etish bilan boqliq asosiy vakolatlari 2007 yil 11 aprelda qabul qilingan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunda yanada aniq belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ijro hokimiyatining faoliyati uchun shaxsan mas'uliyatli hisoblangan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqishi hamda tasdiqlashi uchun Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatiga taqdim etadi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini u iste'foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilinganda yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa qollarda lavozimidan ozod qilishga haqli.

Konstitutsiyaga kiritilayotgan bu o'zgartishlarga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi berilmoqda. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarilmoqda.

Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko'p partiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta sub'ekti, ya'ni davlat boshliqi bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasini yangi taqrirda bayon etish taklif qilinadi²⁹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilayotgan ushbu o'zgartishlarning mazmun-mohiyati shundan iboratki, ularga ko'ra, Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatish va uni tasdiqlashning yanada demokratik printsiplarini ifodalaydigan yangi tartibi o'rnatilmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritilayotgan bu o'zgartishlarga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi berilmoqda. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda ikki palatali parlament tashkil etilgach, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraktsiyalarida oldindan ko'rib chiqish, qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini albatta eshitish amaliyoti shakllandi.

²⁹ Kapimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. T.: "O'zbekiston" 2010. 7 bet

2.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi va uning jamiyat siyosiy-huquqiy hayotdagi ahamiyati.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot mobaynida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yug'rilgan o'ziga xos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi. Shu asosda siyosiy-huquqiy amaliyotda jaxon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitutsiyaviy to'zumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo'linishi printsiplariga mos davlat organlari tizimi shakllantirildi.

Oliy Majlis quyi palatasining «Qonunchilik» palatasi deb nomlanishining asosiy ma'nosi quyi palataning qonunchilik soxasida mutloq vakolatga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Oliy Majlisining quyi palatasining «Qonunchilik» palatasi deb nomlanishida uning qonun ijodkorligi soxasida ustivor ahamiyatga ega ekanligi doimiy ravishda faoliyat kursatishi hamda professional mutaxassislaridan iborat tarkibida bo'lishligi kabi omillar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddaning birinchi bandiga asosan, Qonunchilik palatasiga saylov okruglari buyicha kuppartiyaviylik asosida 150 deputat saylanadi³⁰. Qonunchilik palatasini tashkil qilishda va shakllantirishda bevosita saylov muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilik palatasiga saylovlar saylov yilining dekabr oyining uchinchi un kunligini birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Qonunchilik palatasi bevosita O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda 1990 yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Oliy Kengash faoliyat ko'rsatmoqda edi. O'zbekistonda demokratik islohotlarni bosqichma bosqich amalga oshirish yo'lidan borilib birdaniga Oliy Kengash tarqatib yuborilmadi u 1990-1994 yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko'rsatdi va o'z vakolat muddati davrida 200 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq qaror qabul qildi.

³⁰ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 2014 йил Т.: “O'zbekiston” b.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq bir palatali parlament – Oliy Majlisni shakllantirishga kirishildi. 1993 yil 8 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi, 1994 yil 22 sentyabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ularda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xududiy saylov okruglari buyicha kuppartiyaviylik asosida 5 yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'ladi deb belgilab qo'yildi.

Muxtaram yurtboshimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birinchi qo'shma majlisidayoq “Bizning bosh maqsadimiz sifatida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya qilish va isloh etish” mavzusidagi ma'ro'zasida davlatning keyingi strategik yo'nalishlarini deputatlar va senatorlar e'tiboriga taqdim etdi. Ma'ro'zasida qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish davlat qurilishi va boshharuvi sohasidagi eng muhim vazifalari sifatida belgilandi³¹.

Darhaqiqat, qonun chiharuvchi organ davlat mexanizmida asosiy o'rin tutishi isbot talab qilmaydigan hol. Buning sababi shundaki, u ijro etuvchi hokimiyat amalga oshirishi lozim bo'lgan va sud hokimiyatining faoliyati uchun qonunchilik asosi bo'lib xizmat qiladigan umummajburiy talablarni o'rnatadi. Shuningdek, Oliy Majlis nazorat-tahlil, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha faoliyat olib boradi³².

Shubhasiz, parlamentimizning faoliyatini takomillashtirish hamda demokratiyalashga yo'naltirilgan yirik tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qildi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yilga mo'ljallangan faoliyatining asosiy

³¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya qilish va isloh etishdir. Xalq so'zi, 2005 yil 29 yanvar, № 20 (3565).

³² Bu haqda batafsilroq qarang: Xalilov E.X. Parlament Uzbekistana na sovremennom etape razvitiya stranii. // Pravo. №1. - 1998. – 8-11-betlar.

yo'nalishlari qabul qilindi³³. Lekin mazkur hujjatda Oliy Majlis faoliyatining faqat qonunchilik, nazorat-tahlil faoliyati va o'tkazadigan tadbirlari ko'rsatilgan. Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi devonining Nazorat-axborot bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

2005 yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 63 ta qonun loyihalarini qabul qilish rejalashtirilgan. Shulardan 25 tasi ishlab chiqiladigan, 6 tasi yangi tahrirda kiritiladigan va 32 tasi amaldagi qonunlarga o'zgartishlar kiritishga oid qonunlar loyihalaridir.

Aytish joizki, qonun ijodkorligi jarayonini Reglament va maxsus Qonun bilan tartibga solinishi dolzarb masalaga aylanadi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish Qonunchilik palatasi ishini to'g'ri tashkil etish masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Qonunchilik palatasi vakolatlarining samarali bajarilishi ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etilishini taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, Qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlar faoliyatining tashkiliy, axborot ta'minlash, palata ishini to'g'ri rejalashtirishni taqazo etmoqda.

Qonunchilik palatasi ishini tashkil qilishning muhim jihatlaridan biri – bu deputatlar o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishidir. Bunday taqsimotning asosiy maqsadi har bir deputatlarning vazifalarini aniq-tiniq bo'lishiga erishishdir.

Odatga ko'ra, boshqa davlatlarda ham vazifalar quyi palata tarkibidagi rahbar shaxslar va devon xodimlari borligini nazarda tutgan holda taqsimlanadi. Palataning yuqoridagi tarkibi chet davlatlar tajribasiga xos bo'lib, uning ishini unumli tashkil etishda raisning roli ayniqsa muhim.

³³ "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yilga mo'ljallangan faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yil 20 apreldagi 50-I-sonli Qarori

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi o'z tarkibidan qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi Spikeri:

1) qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o'zga tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;

7) qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo'mitalarni saylaydi³⁴.

Qonunchilik palatasi matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;

Kengash bilan kelishilgan holda Qonunchilik palatasi matbuot organlarining bosh muharrirlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;

Qonunchilik palatasi matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

Senat, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;

Qonunchilik palatasi va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;

Qonunchilik palatasi devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, deputatlar va Qonunchilik palatasi devoni ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi va h.k.

³⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2014 yil T.: "O'zbekiston" 23 b.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqli. Qonunchilik palatasi Spikeri vakolatlarining kengligi uning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarini to'g'ri taqsimlashni taqozo qiladi.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi Spikerining topshirig'iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi va Qonunchilik palatasi Spikeri yo'qligida yoki o'z vazifalarini amalga oshirishi mumkin bo'lmagan hollarda uning vazifasini bajarib turadi degan qoida mustahkamlangan.

Umuman, qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlarining vazifalarni bajarish Qonunchilik palatasi devoni xodimlari tomonidan qator tadbirlarni amalga oshirishini taqozo qiladi.

Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etishda uning devonining o'rni kattadir. Chunki Qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlar faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta'minotini Qonunchilik palatasi devoni amalga oshiradi. Qonunchilik palatasining devoni palata rahbariyati huzuridagi kotibiyatni, qo'mitalar bilan ishlash, yuridik, nazorat-axborot xalqaro aloqalar, matbuot va tarjimalar, umumiy bo'lim va buxgalteriyani o'z ichiga oladi³⁵. Devoning bunday to'zilishi va ularning bajaradigan vazifalari palataning ishini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Lekin rivojlangan davlatlar parlamentlari devonlari faoliyatining tahlili mazkur nizomga ayrim o'zgartishlar kiritish lozimligini anglatadi.

Qayd etilganidek, devonning asosiy vazifasi bu parlamentni axborot bilan ta'minlashdir. Axborot bilan ta'minlash degani bu hal qilinayotgan masala yo'zasidan ob'yektiv va ilmiy asoslangan ma'lumotni taqdim etishni nazarda tutadi.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Devoni to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2005 yil 7 apreldagi 73-sonli farmoyishi.

Rivojlangan davlatlarda bunday faoliyatni kutubxonalar va ular tarkibidagi ilmiy tadqiqot xizmatlari tashkil etadi. Qonunchilik palatasida esa kutubxona ishini umumiy bo'limning yuritishi ko'rsatib o'tilgan xolos.

Parlament faoliyatini samarali tashkil etishda ilmiy tadqiqot xizmatlarini ahamiyati katta. Chunki, ular parlament a'zolarini ob'yektiv ma'lumot bilan ta'minlab, to'g'ri qaror qabul qilinishiga zamin yaratadi. Chet el parlamentlarining ilmiy tadqiqot institutlari o'z qaramog'ida katta kitob fondlari, kundalik nashrlar va ma'lumot manbalariga ega bo'lib, odatda parlament kutubxonalarida joylashadilar. Kutubxonalar deputatlarni kerakli axborot, muammolar yo'zasidan aniq va ob'yektiv manbalar bilan ta'minlashga xizmat qiladilar.

Odatda, parlament kutubxonalarining ko'pchiligida 20 nafarga yaqin xodim faoliyat yuritadi. Fidji, Gabbon, Mavrikiy va Uganda ilmiy tadqiqot institutlari bir xodimdan iborat bo'lib, Yaponiyada 847ta (772 deputatga) va AQSh Kengressida 4 ming kishidan oshadi. Umuman olganda, parlament ilmiy-tadqiqot institutlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 1945 yilda AQSh Kongressi ilmiy-tadqiqot institutining xodimlari 45 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1955 yilda ularning soni 130 taga yetdi, hozirgi kunga kelib esa 4 ming kishidan oshib ketdi.

Qonunchilik palatasining devoni bo'limlari shuningdek, qo'mitalar bilan ishlash, yuridik xulosa berish, nazorat-axborot, xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish va boshqa muhim tashkiliy va axborot vazifalarini amalga oshiradi. Parlament ishini tashkil etishning O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, parlament devoni ishini to'g'ri tashkil etish uning vazifalarini samarali amalga oshirishning kafolatidir. Parlament apparati xodimlari mansab instruksiyalarini ishlab chiqish bu boradagi dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy shakli – bu uning majlislaridir. Uni o'tkazishning o'zi Qonunchilik palatasining faoliyati masalalarni birgalikda muhokama qilish, to'g'ri o'tkazish esa erkin muhokama, oshkoralik, va jamoatchilik fikrini hisobga olish prinsiplarini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitusiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Respublika Konstitusiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy bank boshharuvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yo'zasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yo'zasidan ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuning uchun deputatlarni majlislarda muntazam va samarali ishtirokini ta'milash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, Qonunchilik palatasi kollegial organ bo'lib, uning vakolatlariga doir masalalar albatta deputatlarning birgalikdagi muhokamasi uning faoliyati asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi majlislaridagi masalalar bo'yicha ovoz berish shakl va uslublarini belgilash katta ahamiyatga ega. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 11-moddasiga ko'ra Qonunchilik palatasining qarorlari uning majlislarida ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali qabul qilinadi. Ochiq ovoz berish nomma-nom, ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalangan holda yoki yashirin ovoz berish byulletenlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qoida tariqasida, Qonunchilik palatasi majlisida ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalanilishi ustidan nazoratni Qonunchilik palatasi deputatlari jumlasidan bo'lgan guruh amalga oshiradi. Bu guruh ovozlarni to'g'ri tashkil etish uchun javob beradi. Agarda deputatlarda elektron tizimni to'g'ri ishlashi haqida shubha paydo bo'lsa, ular byulletenlardan foydalangan holda ovoz berishni tanlashlari mumkin.

Demokratik jamiyat barpo etish O'zbekiston siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biridir. Ikki palatali parlamentning joriy etilishi belgilangan maqsad sari amalga oshirilgan muhim islohotlardan biridir. Lekin ushbu parlamentning biz uchun yangiligi, rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi parlament vazifalarining samarali bajarilishi uning qo'mita va komissiyalari faoliyatiga bevosita bog'liqligini ko'rsatmoqda. Fransiya parlamenti quyi palatasi mudofaa va Qurolli Kuchlar bo'yicha komissiyasining sobiq raisi esa, "Milliy Majlisni yomon tomosha ekanligini

qarang, vaholanki haqiqiy ish mavjud va u komissiyalarda bajariladi” deb aytishi ushbu holatni tasdiqlaydi. Barcha masalalarni o’zoq va sinchkovlik bilan dastlab komissiyalarda o’rganilishi ular faoliyatining tashkiliy masalalarini muntazam takomillashtirib borishni talab qiladi.

“O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to’g’risida”gi qonunning 17-moddasiga ko’ra Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko’rib chiqish va tayyorlash, O’zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o’rinbosari va a’zolaridan iborat tarkibda qo’mitalar saylanadi.

Milliy qonunchiligimizda bu vazifalarni amalga oshirish uchun qo’mitalar tashkil qilinsa, bir qancha xorijiy mamlakatlarda (Yaponiya, Fransiya, Italiya) bu vazifalar komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi³⁶.

Qo’mita raisi, uning o’rinbosari va qo’mita a’zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiya yoki guruhga mansubligini hamda saylovda saylovchilarning qancha ovozi o’lganligini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy) qaror bilan belgilanadi.

“O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Reglamenti to’g’risida”gi qonuni 7-moddasining uchinchi qismiga ko’ra Qonunchilik palatasida reglament; Byudjet, bank va moliya masalalari; Iqtisodiy masalalar va tadbirkorlik; Qonunchilik va sud-huquq masalalari; Mehnat va ijtimoiy masalalar; Mudofaa va xavfsizlik masalalari; Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo’mitalari to’zilishi shart. Qonunchilik palatasida boshqa qo’mitalar ham to’zilishi mumkinligi ko’rsatilib, ularning umumiy soni, qoida tariqasida, o’ntadan oshmasligi kerakligi mustahkamlangan.

Mazkur qoidaga asosan Qonunchilik palatasida Byudjet va iqtisodiy islohotlar, Qonunchilik va sud-huquq masalalari, Mehnat va ijtimoiy masalalar,

³⁶ Konstitutsii zarubejno`x gosudarstv. Uchebnoe posobie. Moskva: “Bek”, str.50-55, 60-61.

Mudofaa va xavfsizlik masalalari, Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, Sanoat, qurilish, va savdo masalalari, Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya, Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitalari to'zilgan³⁷.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi to'zilgan. Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar to'zishi mumkinligi mustahkamlangan.

Parlamentlardagi qo'mitalar soni, nomi va vakolatlarini belgilashda ularning faoliyati davlat siyosatining barcha jabhalarini hamrab olishidan kelib chiqiladi. Bunday yondashuv natijasida xorijiy davlatlar parlamentlari qo'mita va komissiyalarining soni aytarli darajada salmoqli bo'ladi. Misol uchun, Yaponiya "Parlamenti to'g'risida"gi qonunining 42-moddasiga ko'ra Maslahatchilar palatasida adliya, tashqi siyosat, moliya, maorif, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy ma'muriyat, ijtimoiy muammolar, mehnat, qishloq xo'jaligi, o'rmon va suv xo'jaligi, savdo va sanoat, aloqa, transport, qurilish, shuningdek, byudjet, taftish, intizomiy va parlamentda ishni tashkil etish masalalari bo'yicha komissiyalar to'ziladi. AQSh Kongressida palatalarning (soliqqa tortish, iqtisod, Kongress kutubxonasi, nashrlar bo'yicha) 4 ta umumiy va har birining tarkibida (Senatda – 16 ta, Vakillar Palatasida – 22 ta) ko'plab qo'mitalar to'zilgan.

Italiya, Fransiya va boshqa davlatlarning parlamentlarida ham turli komissiyalar to'ziladi. Biroq, komissiyalarning soni qanchalik ko'p bo'lmasin, ular davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab ololmaydilar. Shuning uchun komissiyalarning nomi ularning faoliyat sohalaridan kengroq bo'lishi mumkin. Misol uchun, qurilish bo'yicha komissiyalar nafaqat qurilish, balki yerdan foydalanishni rejalashtirish, kartografiya, topografiya masalalari bilan ham shug'ullanadilar³⁸.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining qo'mitalari to'g'risida"gi 2005 yil 27 yanvardagi 14-I-sonli qarori.

³⁸ Konstitutsionnoe (gosudarstvennoe) pravo zarubejno`x stran. T. 1 – 2.- M., 1996, C. 456.

O'z zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali bajarishi uchun O'zbekiston qonunchiligida qo'mitalarga keng vakolatlar berilgan. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi qonunning 18-moddasiga ko'ra Qonunchilik palatasi qo'mitalari:

o'z tashabbusi bilan yoki Qonunchilik palatasining topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi qonunlarining hamda o'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yo'zasidan Qonunchilik palatasi boshqa qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadi;

qonun loyihalarining dastlabki tarzda ko'rib chiqilishini va ularni Qonunchilik palatasida ko'rib chiqishga tayyorlashni amalga oshiradi;

qonunlarning loyihalari yo'zasidan xulosalar beradi, qonun loyihasini Qonunchilik palatasining majlisi kun tartibiga kiritish, uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi yo'zasidan xulosalar va takliflar beradi;

Qonunchilik palatasining topshirig'iga yoki palata Kengashining tavsiyasiga binoan muayyan qonun loyihasi yoki palata vakolatlariga kiradigan boshqa masala yo'zasidan mas'ul bo'ladi;

kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlarini to'zadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning rahbarlarini jalb etadi;

qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari vakillarining ular tomonidan kiritilgan qonun loyihasiga taalluqli masalalar yo'zasidan fikrlarini eshitadi;

kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartish yoki qo'shimchalar kiritish yo'zasidan takliflar tayyorlaydi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi;

davlat hokimiyati va boshharuvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqidagi axborotlarini eshitadi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ayon bo'ladiki, ushbu vakolatlarni amalga oshirish jarayonida parlament qo'mitalari qonunchilik, nazorat va axborot to'plash funksiyalarini amalga oshiradilar.

O'zbekistonda qonun matni ko'rib chiqish uchun qo'mitaga berilganidan so'ng, u o'z tarkibidan ma'ro'zachini tayinlaydi. Ma'ro'zachi ushbu qonunning mohiyatini ko'rib chiquvchi qo'mita majlisida maslahat ovozi bilan qatnashishi va qo'mita tomonidan kiritilgan to'zatlarni himoya qilishi mumkin. Tayinlanishi bilanoq ma'ro'zachi matn ustida ishlashni boshlaydi. Unga palata devonining xodimlari salmoqli yordam ko'rsatadi. U matn mualliflari, shuningdek, lozim deb topgan boshqa mansabdor va jismoniy shaxslarni eshitadi. Bular davlat mansabdor shaxslari, xususiy sektor, kasaba va boshqa jamoat tashkilotlari vakillari bo'lishlari mumkin. Zarur bo'lgan barcha axborotlarni to'plab, qonun matnining har bir moddasini tahlil qilib, ma'ro'zachi o'z fikrini taqdim qiladi, shundan keyin masala qo'mita kun tartibiga qo'yiladi.

Umumiy muhokamani boshlashdan oldin, odatda, qo'mita majlisida manfaatdor shaxs o'z fikrini bayon qiladi va deputatlar savollariga javob beradi. Keyin ma'ro'zaching nutqi har bir a'zo o'z fikrini bayon qilishi mumkin bo'lgan umumiy muhokamani ochib beradi. Muhokamadan so'ng doimiy qo'mita matnni moddama-modda o'rganishga o'tadi. U ma'ro'zachi va doimiy komissiyaning boshqa a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar bo'yicha qaror qabul qiladi. Yakunida matn ovozga qo'yiladi va qo'mita qarori qabul qilinadi.

Muxtasar qilib aytganda, parlament qonunchilik palatasining faoliyati Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik

jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida belgilab berilgan jamiyatni va davlatni rivojlantirishning tom ma'nodagi yangi bosqichida mamlakatni modernizatsiya qilishning muhim vazifalarini hal etishga qaratilgan bo'lib, qonunchilik palatasining butun salohiyati, imkoniyatlari va vositalarini safarbar etish, uning qonunchilik, nazorat-tahlil, axborot-targ'ibot va xalqaro faoliyatini yo'naltirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

2.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi va uning jamiyat siyosiy-huquqiy hayotdagi ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini isloh qilish masalasi faqat parlament faoliyatini takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti masalalarinigina emas, balki demokratiyani yanada rivojlantirish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifalarini amalga oshirishdan ham iboratdir. Huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida bu haqda batafsil fikr yuritish lozim.

O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat deb nomlanadi. «Senat» termini yuridik atama sifatida ko'pchilikka tanish siyosiy, iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda parlamentning yuqori palatasi Senat deb nomlanadi. Senat atamasi «SENAT» lotincha so'zdan olingan bo'lib, qadimgi Rimda ilk davlatchilik vujudga kelgan zamonlardan beri davlat hokimiyati Oliy organining nomi sifatida ishlatilib kelingan. Uning lug'aviy mazmuni «oqsoqollar kengashi» yoki «maslaxat organi» degan ma'nolarni anglatadi.

2006 yil fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisida “Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo'lishi darkor” mavzusida ma'ro'za qildi.

Ushbu ma'ro'zada Prezidentimiz birinchi vazifa sifatida, “Senatimiz faoliyatining bugungi kunda eng bo'sh tomonini, shuni ochiq tan olishimiz kerak, avvalo mahalliy kengashlar deputatlar korpusi bilan o'zviy aloqalarni ta'minlamaganimiz, ular bilan hamkorlikda ishlashni joy-joyiga qo'ymaganimizda ko'rishimiz lozim” deya ta'kidladi.

Parlamentarizmning takomillashib va mustahkamlanib borishi umumjahon tendensiyasi hisoblanadi. Parlament rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari uning oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organ sifatidagi tabiatining o'zida mavjuddir. Bugungi kunda deyarli barcha demokratik mamlakatlar uchun xos bo'lgan xususiyat shuki, parlament o'z vazifasini qanchalik samarali bajarsa va

hokimiyatlar bo'linishi tizimida kuchliroq mavqega ega bo'lsa, huquqiy davlat va uning qonunchilik tizimi shunchalik samaraliroqdir. O'zbekiston Respublikasining saylovlar to'g'risidagi qonun hujjatlari asosiy universal saylov huquqi printsiplariga asoslangan. Ammo bir vaqtning o'zida ushbu printsiplarning qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yilishi etarli emas, muhimi ularni saylovlar jarayonida hayotga joriy qilishdan iboratligi haqidagi A.S.Tursunovning mulohazasi shu o'rinda nihoyatda ahamiyatlidir.

Prezidentimiz ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida ikki palatali parlamentga o'tish to'g'risidagi taklifni kiritganda yuqori palatani tashkil etishning bosh maqsadi hududiy vakillikni joriy etish zarurligiga asoslangan edi. Prezident yuqori palata tarkibi viloyatlar, shaharlar va tumanlardan mahalliy Kengashlarga saylangan deputatlardan iborat bo'lishini, Yuqori palataga saylangan deputatlar o'z viloyati manfaatlarini himoya qilishlarini tasavvur qilgan. Bu vazifa asosan quyi palatada tayyorlangan qonunlarni ko'rib chiqish vositasida ro'yobga chiqarilishi kerak. Shuningdek, yuqori palataga har qaysi viloyatdan saylangan deputatlarning soni bir xil bo'lishini belgilab qo'yish taklif qilindi. Bunda Prezident yuqori palata faoliyatining bosh printsiptini shunday qayd etdi - yuqori palata davlat faoliyatining barcha sohalariga teng ko'z bilan qarab, xalq manfaatlarini bir xilda qimoya qilishi kerak.

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, birinchi navbatda, yuqori palatada mahalliy deputatlar vakolatlarining ifodalanishi g'oyasida ularning davlatni boshqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatishini kengaytirishga intilish aks etgan. Chunonchi, Prezident ta'kidlaganki, yuqori palata bevosita qonunlarni yaratishda quyi palata bilan bir vaqtda ishtirok etmasligi kerak. Uning asosiy vazifasi viloyatlar, tumanlar va shaharlar deputatlari vakillari orqali mahalliy hokimiyat manfaatlarini ifodalashdan hamda quyi palata taqdim etgan u yoki bu qonunni ma'qullash yoki ma'qullamaslikdan iborat bo'ladi. Yuqori palata "o'z hududlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda qonunchilik jarayonida ishtirok etadi".

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birinchi qo'shma majlisidayoq yurtboshimiz I.A.Karimov "Bizning bosh maqsadimiz sifatida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish" ma'ro'zasida davlatning keyingi strategik yo'nalishlarini deputatlar va Senatorlar e'tiboriga taqdim etdi.

Barqarorlik va nazorat omili sifatida konservativ element muayyan normalarda o'z ifodasini topdi. Birinchidan, Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan va alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanishi haqidagi normada aks etdi.

Ikkinchidan, qonunni qabul qilish tartibida aks etgan bo'lib, unga ko'ra, qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunni Senat ko'rib chiqadi hamda uni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat tomonidan rad etilgan va qonunchilik palatasiga qaytarilgan qonun, agar quyi palata deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan shu qonunni yana ma'qullasa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinishi mumkin. Shuningdek konservativ elementning demokratikligi yo'zaga kelgan kelishmovchiliklarni kelishuv komissiyalarini to'zish orqali bartaraf etish tartibida aks etgan³⁹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (Yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasidir. Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlari, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarning tegishli qushma majlislarida mazkur deputatlar orasida yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida teng miqdorda - olti kishidan saylanadi.

³⁹ "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2005 yilga mo'ljallangan faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2005 yil 20 apreldagi 50-I-sonli qarori

Senatning un olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bulgan hamda aloxida xizmat kursatgan eng obruli fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senatda hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy boshqa asosda guruxlar to'zishga yo'l qo'yilmaydi. Senatning vakolat muddati besh yil. Vakolat muddati tugagach Senat yangi chaqiriq Senatni ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi. Saylov kuni yigirma besh yoshga tulgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi xududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Senat a'zosi va qonunchilik palatasi deputati bo'lishi mumkin emas.

Senat a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadi. U Senatning roziligisiz, Senat majlislari oralig'idagi davrda emas, Senat Kengashining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, hamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Senat a'zosiga uning senatorlik faoliyati bilan bog'lik xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi. Senat a'zosining vakolatlari qonunda nazarda tutilgan xollarda va tartibda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

Senat a'zolari Senatda doimiy asosda ishlashlari mumkin. Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlarning soni senat senatorlari umumiy sonining to'rtidan birigacha bo'lgan miqdorda belgilanadi. Ular senatorlik vakolatlari davrida ilmiy va pedogogik faoliyatidan tashqari xaq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'illanishlari mumkin emas.

Senat a'zosining maqomi qonun bilan belgilanadi. Senat o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yo'zasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yo'zasidan qarorlar qabul qiladi.

Senat umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yo'zasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan

rasmiylashtiriladi. Senat qarorlari, Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaning 80-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini saylash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muqofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yo'zasidan qarorlar qabul qilish;

siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot soxasidagi u yoki bu masalalar yo'zasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yo'zasidan qarorlar qabul qilish kiradi.⁴⁰

Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning majlisidir.

Senat majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladi. Senatning birinchi majlisi Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

Senat birinchi majlisini O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi ochadi va Senat raisi saylangunga qadar unga raislik qiladi.

Senatning navbatdan tashqari majlisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi taklifiga binoan yoki Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

Faqat Senat majlislarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari ma'qullanadi hamda Senat xujjatlari qabul qilinadi. Senat va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, qonunchilik palatasi Spikeri, Bosh vazir, Vazirlar Maxkamasining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokuror ishtirok etishlari mumkin.

Senat majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning, ilmiy muassasalarining vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining,

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risidagi qonun; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 80-modda T.O'zbekiston 2014.

televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin.

Senat majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi. Zarurat bo'lganda, Senat yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Senat majlislarining tashkil qilish va o'tkazish tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Senat va qonunchilik palatasining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining muhim masalalari yo'zasidan nutq so'zlanganda, chet davlatlarining raxbarlari nutq so'zlanganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga muvofiq qo'shma majlislar boshqa masalalar yo'zasidan ham o'tkazilishi mumkin. Palataning qo'shma majlisi ochiq va oshkora o'tkaziladi. Palatalarning qo'shma majlisi, agar unga tegishlicha Senat a'zolari va qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Palatalarning qo'shma majlislarida, agar qo'shma majlisda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi navbatma navbat raislik qiladi.

Palatalarning qo'shma majlisida eshitilgan masalalar muxokamasi natijalari asosida palatalarning qo'shma qarori qabul qilinishi mumkin. Bunda ovoz berish, qoida tariqasida, alohida-alohida o'tkaziladi.

Senat va Senat a'zolari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslarga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yo'zasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarni bayon qilish talabi bilan parlament surovi yo'llashga xaqli. Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini mansabdor shaxslari Senat Reglamentida belgilangan muddatlarda Senat majlislarida beradilar.

Senat Raisi Senat tarkib topganidan keyingi birinchi majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat a'zolari orasida yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan senat vakolati

muddatiga saylanadi. Senat Raisligiga nomzod ko'rsatish va saylash tartibi Senat Reglamentida belgilanadi. Senat raisi o'z vazifasini bajarish davrida siyosiy partiya va xarakatlarga a'zolikni tuxtatib turadi.

Senat Raisi Senat qo'mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas. Senat Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

Senat Raisi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yo'zasidan farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'z tarkibidan Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylaydi. Senat Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi:

Senat majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

Senat qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Senat guruhlarining faoliyatiga raqbarlik qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko'radi;

Senat qarorlarini imzolaydi;

ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi farmoyishlar chiqaradi⁴¹.

Senat Raisi o'zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muxokamasiga kiritishga xaqli.

Senat Raisining o'rinbosarlari Senat a'zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolatlari muddatiga saylanadi. Senat raisining o'rinbosarlariga nomzodlar ko'rsatish va saylash tartibi Senat Reglamentida belgilanadi. Senat raisining o'rinbosarlari o'z vazifalarini bajarish davrida siyosiy partiyalar va xarakatlarga a'zolikni tuxtatib turadi. Senat raisining o'rinbosarlari Senat qo'mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas.

Senat raisining o'rinbosarlari Senat Raisining topshirig'iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi va Senat Raisi yo'qligida yoki o'z vazifalarini amalga oshirish mumkin bo'lmagan xollarda uning vazifasini bajarib turadi.

Senat Raisining o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi. Senat faoliyatining samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yo'zasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi to'zilai.

Senat Kengashi palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab to'planadi. Senat Kengashi tarkibiga Senat raisi, uning o'rinbosarlari va qo'mitalarning raislari kiradi. Senat o'z vakolatiga kiradigan masalalar yo'zasidan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qiladi.

Senat muxokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini hamda Senat tomonidan

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risidagi qonuni; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2014. 86-moddasi. T.O'zbekiston

qabul qilinadigan qarorlarni ijrosini nazorat qilish uchun Senat shakllanganidan keyin uning vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda qo'mitalar saylanadi.⁴²

Senat qo'mitalarning barcha a'zolari teng huquqlardan foydalanadilar. Qo'mita tarkibiga saylanmagan senator uning ishidan maslaxat ovozi huquqi bilan ishtirok etishga xaqli. Senat qo'mitalari senat oldida ma'sul va unga xisobdordir.

Senat qo'mitalari:

qonunchilik palatasi tomonidan senatga ma'qullash uchun topshirilgan qonunlar yo'zasidan xulosalar beradi;

o'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yo'zasidan o'z tashabbusi bilan va senatning topshirig'iga binoan senat hujjatlari loyixalarini ishlab chiqadi;

qonunni majlis kun tartibiga kiritish yoki uning ustidan ishlashni davom ettirish yoxud asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida kengashga takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyixasi yo'zasidan xulosalar va takliflar beradi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari va boshqa xulosalarni, statistika ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar talab qilib olinadi;

qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlarini to'zadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlarini, qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqida axborotlarni eshitadi va jalb etadi;

kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, senat tomonidan qabul kilinayotgan qarorlar matniga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yo'zasidan takliflar tayyorlaydi;

⁴² O'zbekiston Respublikasining Senati to'g'risidagi qonun 17-moddasi T. 2002y.

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari raxbarlarining O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va senat hujjatlari hamda, senat qo'mitalari ishini o'z rejalarga, shuningdek, Senat buning Raisi va kengashi topshiriqlari hamda tavsiyalarga muvofiq tashkil etadi.

Senat qo'mitalarining faoliyat tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Senat qo'mitalarining majlislari Senat majlislari oralig'ida zaruratga qarab o'tkaziladi. Senat qo'mitalarining majlislari, agar ularda qo'mita a'zolarining kamida yarmi xozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Senat qo'mitalarining majlislari ochiq o'tkaziladi. Zarurat bo'lganida Senat qo'mitalari yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qo'mitalarning majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining, televidenie, radio hamda boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin.

Senat qo'mitalari ko'rib chiqilayotgan masalalar yo'zasidan qo'mita jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi. Senat qo'mitalarining davlat organlariga yuborilayotgan qarorlari ular tomonidan ko'rib chiqilishi shart, natijalar yoki ko'rilgan choralar to'g'risida, agar qarorda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, o'zog'i bilan bir oydan kechiktirmay xabar qilinishi kerak.

Senat muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar to'zishi mumkin. Komissiyalar Senat majlisida senatorlar orasidan to'ziladi. Ayni paytda komissiyani to'zishdan ko'zlangan maqsad va uning vakolatlari belgilanadi. Komissiyalar o'z faoliyatini zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan keyin yoki Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatadi.

Qonun Senatga kelib tushganidan keyin Senat Raisi uni dastlabki tarzda ko'rib chiqishni oshiradigan ma'sul qo'mitani belgilaydi. Qonunni dastlabki tarzda ko'rib chiqish natijalari asosida ma'sul qo'mita qonun yo'zasidan xulosa qabul qiladi.

Senat ma'sul qo'mitaning xulosasini olganidan keyin qonunni muxokama qiladi va uni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Qonun Senat tomonidan senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan maqullanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlar hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni maqullash uchun senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

Ovoz berish ochik yoki yashirin bo'lishi mumkin. Ovoz berishning shakli va usuli to'g'risidagi qaror Senat tomonidan Senat majlisida hozir bo'lgan senatorlarning ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Senat tomonidan rad etilgan qonun qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan senat va qonunchilik palatasi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Senat a'zolari va qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasi to'zish mumkin.

Kelishuv komissiyasining xar bir palatadan ko'rsatilgan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiyaning ham raisini saylaydi. Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning xar bir e'tirozini alohida-alohida ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasi qonunning senat e'tiroz bildirmagan ayrim moddalari taxririni o'zgartirish to'g'risida, agar bunday o'zgartirishni Senatning takliflari asosida ishlab chiqilgan qonun moddalarining taxriri taqazo etadigan bo'lsa, qaror qabul qilishga xaqli.

Kelishuv komissiyasi ishining natijalari yo'zasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qilinadi. Kelishuv komissiyasi to'zish tartibi, komissiyaning tarkibi va ishi Reglamentda belgilanadi.

Kelishuv komissiyasining taklifi qabul qilingan taqdirda, qonun qonunchilik palatasida odatdagi tartibda qayta ko'rib chiqilishi lozim va u maqullash uchun Senatga yuboriladi. Agar Senat ilgari rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda

uni kelishuv komissiyasining taxrida ma'qullanmasa, qonun rad etilgan xisoblanadi va u qonunchilik palatasiga qaytarilishi kerak.

Senat ma'qullangan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga xaqli. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan va qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullash uchun Senatga qaytadan kiritilgan qonunni Senat ko'rib chiqib, uni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan taxrida Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Senat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslaxat qabul qilgan qarori asosida quyidagi hollarda tarqatib yuborilishi mumkin:

Senat tarkibida uning normal faoliyatiga taxdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yo'z bergan yoki u bir necha marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

Senat bilan qonunchilik palatasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga taxdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yo'z berganda. Senat tarqatib yuborilgan taqdirda uch oy mobaynida uning yangi tarkibi shakllantiriladi. Senat favqulotda xolat joriy etilgan davrda tarqatilishi mumkin emas.

Senat, uning organlari va senatorlar faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta'minotining Senat devoni amalga oshiradi. Senat devoni to'zilmasi, shtatlari, xodimlarining mehnat xaqi miqdori va moddiy-texnika ta'minoti,

shuningdek, ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar Senat Raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Senat devoni xodimlarining mehnatga oid munosabatlari Senatning vakolati muddatiga bog'lik bo'lmaydi. Senat devoni yuridik shaxs hisoblanadi.

Senat devonining tashkil etilishi va faoliyati tartibi Senat Raisi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomda belgilanadi.

Senat faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Senat o'z matbuot organlariga ega bo'ladi.

Senator faoliyatining huquqiy asoslari: senator o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi deputatining va Senat a'zosining maqomi to'g'risida"gi va boshqa qonunlarga muvofiq amalga oshiradi⁴³.

Saylovlar parlament tarkibini shakllantirishning muhim vositasidir. Butun parlament ishi samaradorligi Senatni shakllantirish qanday tamoyillar va normalardan foydalanilgan holda kechganligiga bog'liqdir. Binobarin yuqori palatani tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar parlament isloxoti umumiy mafkurasining tarkibiy qismidir. O'z navbatida palatani shakllantirish tamoyillari va normalari Senat zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqadi.

Ushbu o'zaro shartlilik va o'zaro bog'liqlilik senatorlar korpusini shakllantirish va palata faoliyatini tashkil etishining boshqa masalalari - palata ishini konstitutsiyaviy tarzda belgilangan maqsad va vazifalar doirasida samarali tashkil etishning yagona normativ-huquqiy tizimidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi deputatining va Senat a'zosining maqomi to'g'risidagi qonuni. 02.12.2004. 4 – modda.

Garchi ushbu tizim umume'tirof etgan oshkoralik va nomzodlarning bellashuvi printsiplari asosida, yuksak demokratik mezonlar zamirida barpo etilsada, birinchi navbatda mamlakat siyosiy tizimining xususiyatlarini ifodalaydi va shu tarzda tashkiliy mazmuniga ko'ra betakrordir. Jaqonda yuqori palatalarni shakllantirishning usul va tartiblari orasida xilma-xillik ko'zatilayotganligi tasodifiy hol emas. Xar bir milliy tajriba tegishli siyosiy tizim va davlat mexanizmining tarixan rivojlanishi tendentsiyalarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarini tayinlash to'g'risida"gi Farmoniga asosan o'n olti nafar senator tayinlandi va bugungi kunda ular o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Demak, jami yuz nafar senator Oliy Majlis Senatida faoliyat olib boradi⁴⁴.

O'zbekiston Respublikasida ilk bor tashkil etilib, 2005 yildan o'z faoliyatini boshlagan Oliy Majlis Senatida jami senatorlarning 15 nafarini ayollar tashkil qiladi. Shuningdek, Senat tarkibida oltita millat vakillari bor. Ulardan: o'zbeklar - (90 nafar), qoraqalpoqlar - (4 nafar), ruslar - (3 nafar), turkman - (1 nafar), ukrain - (1 nafar).

Saylangan va tayinlangan Senat a'zolarining mutaxassisliklari: muhandislar – 40 kishi; iqtisodchilar – 16 kishi; o'qituvchilar – 12 kishi; huquqshunoslar – 9 kishi; agronomlar – 9 kishi; tibbiyot xodimlari – 5 kishi; boshqa soxa mutaxassislari – 9 kishi.

Senat a'zolarining ma'lumoti:

- 98 nafar senator oliy ma'lumotli;
- 2 nafar senator o'rta maxsus ma'lumotli.
- Ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan Senat a'zolari:
- akademiklar – 3 kishi;
- fan doktorlari, professorlar – 10 kishi;

⁴⁴ Bobobekov A. Yuqori palata va parlamentarizm rivoj topishining asosiy yo'nalishlari. G`G` Qonun himoyasida. 2004. №2. 22-24b.

- фан номзодлари, доцентлар – 13 киши.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zoliciga va qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarga qo'yiladigan talablarning huquqiy asoslari yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi qonunining turli moddalarida o'z ifodasini topgan. Ular quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi uhdudida muqim yashayotgan fuqarolar egadirlar;

- Jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar barcha fuqarolarimiz teng saylov huquqiga, ya'ni saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Qonundagi cheklovlar bundan mustasno;

- Deputatlikka nomzod siyosiy partiya a'zosi yoki partiyasiz ham bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqiga amaldagi qonunda belgilanganidek, siyosiy partiyalar va bevosita fuqarolar egadirlar;

- Bir shaxs faqat bitta saylov okrugidan deputatlikka nomzod qilib ko'rsatilishi mumkin;

- Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda deputatlikka nomzodlar saylovoldi tashviqotini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquqqa egadirlar;

- Deputatlikka nomzod mahalliy hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan amaldagi qonunda belgilangan tartibda huquqiy munosabatlarini o'rnatishi, ya'ni saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etishda, zarur ma'lumot va axborot materiallari olish, yig'ilishlar o'tkazish uchun jihozlangan binolar ajratilishi masalalarida zikr etilgan idora va muassasalarga murojaat etishi va ular deputatlarning qonuniy talablarini o'z vaqtida ijro etishlari shart;

- Deputatlikka nomzodlarning tegishli kasbiy mahoratga ega ekanligini belgilovchi hamda saylovchilarning ishonchini qozonib, saylovdagi g'alabasini ta'minlashning yana bir omili bu deputatlikka nomzodlar tomonidan o'z saylov dasturlarini mamlakatimizdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini qay darajada hamrab olib, saylovchilarga etkaza bilishidadir. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, deputatlikka nomzodlarning dasturlari davlatning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan bo'lmasligi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovo'z qilmasligi, ularda urush, milliy, irqiy va diniy adovat targ'iboti, konstitutsiyaviy to'zumni zo'rlik bilan o'zgartirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kamsituvchi xatti-harakatlarga da'vat bo'lmasligi kerak;

- Deputatlikka nomzod O'zbekistondagi qonunchilik tizimidan nafaqat xabardor bo'lishi, balki ushbu qonun qujjatlarini kelajakda takomillashtirish borasida ham muayyan tasavvurga ega bo'lishi lozim. Ayniqsa, Konstitutsiya va saylov, mehnat, oila, ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlar, jinoiy va ma'muriy Kodekslar talablari deputatlikka nomzod shaxslar uchun saylov jarayonlarida doimiy dasturulamal vazifasini bajarishi kerak;

- Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 25-moddasida deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra "sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar" deputatlikka nomzod bo'la olmasligi qayd etilgan⁴⁵.

Demak, sudlanganligi olib tashlangan fuqarolar nafaqat saylash, balki saylanish huquqidan ham to'liq foydalanishi uchun huquqiy asoslar mavjud.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, viloyat, tuman, shahar davlat hokimiyati vakillik organining saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan

⁴⁵ Abbosxo'jaev S.A..Abbosxo'jaev Sh.A. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik jarayoni va unda Respublika Prezidenti ishtirokining huquqiy asoslari. G'G'. Davlat va huquq. Toshkent, 2004. -№ 1 (17) B-10-12.

deputat Senat a'zoliciga saylanish uchun nomzod bo'lishi mumkin (Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 53-moddasi).

Saylovda ishtirok etish uchun quyidagi shaxslar deputatlikka nomzod sifatida ro'yxatga olinmaydilar:

- Sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;
- Saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar;
- O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;
- Diniy tashkilot va birlashmalarning professional xizmatchilari.

Shu bilan birga, amaldagi qonunda belgilanganidek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan maqrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar.

Ayni bir shaxs bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas. Bu norma tizimli muvozanatni mustahkamlash uchun qayd etilgan. Chunki, har ikki palata o'z funktsiyasiga ega va bir vaqtning o'zida bir shaxs ikki funktsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega emas.

Oliy Majlis Senatining Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi. Senat Raisi o'rinbosarlarining huquqiy maqomi 2002 yil 12 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning 15-moddasida ifodalangan bo'lsa, ularni saylash tartibi 2003 yil 29 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida o'z aksini topgan. Unga asosan: Senat Raisining o'rinbosarlari Senat a'zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan

Senat vakolat muddatiga saylanadi. Senat Raisining o'rinbosarligiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan senatorlar orasidan taqdim etiladi. Senatorlar orasidan saylangan Senat Raisining o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi. Ushbu masala bo'yicha qaror qabul qilinadi, qarorlarni Senat majlisida raislik qiluvchi imzolaydi.

Senat qo'mitalari raislari va ularning o'rinbosarlari faoliyati hamda ularni saylash tartibiga oid huquqiy normalar 2002 yil dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning 17-moddasida va 2003 yil avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida o'z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, Senat tomonidan senatorlar orasidan palataning vakolatlari muddatiga rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda qo'mitalar to'ziladi. Senat Raisi va uning o'rinbosarlari Senatning qo'mitalari tarkibiga saylanishi mumkin emas.

Senatda reglament, byudjet va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari, tashkiliy-ma'muriy masalalar, qonunchilik va sud-huquq masalalari, mudofaa va xavfsizlik masalalari, tashqi siyosat masalalari qo'mitalari to'zilishi shart. Senatda boshqa qo'mitalar ham to'zilishi mumkin. Senat qo'mitalarining umumiy soni, qoida tariqasida, sakkiztadan oshmasligi kerak.

Senat qo'mitasining raisi, uning o'rinbosari va qo'mita a'zolari palata majlisida Senat Raisining taqdimiga binoan senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi.

Senat qo'mitasining raisi, uning o'rinbosari, shuningdek qo'mita a'zolari saylangani to'g'risida Senat qarorlar qabul qiladi.

Hozirda samarali faoliyat olib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida oltita qo'mita mavjud. Ular:

Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi;

Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi;

Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi;

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi;

Tashqi siyosat masalalari qo'mitasi;

Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi.

Senatorlar ham dahlsizlik huquqidan foydalanadilar. Albatta, biror senator jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishi lozim bo'lsa, u to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Senatga ma'lum qiladi va ushbu masala Senat majlisida ko'rib chiqilib, muhokama etilib, haqiqatdan ham senator faoliyatida jinoiy yoki ma'muriy ko'rinishdagi huquqbo'zarlik mavjud deb topilsa, javobgarlikka tortilishi mumkin.

Xuddi qonunchilik palatasi kabi Senat ham o'z faoliyatini tashkil etish va tartibga solish yo'zasidan qarorlar qabul qiladi. Misol uchun, Senat qo'mitalarini to'zishga oid, Senatning komissiyalarini to'zishga oid, Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylashga oid va h.k. masalalarda Senat qarorlar qabul qiladi.

Senat ijtimoiy hayotning bir qator o'ziga tegishli bo'lgan masalalari yo'zasidan qarorlar qabul qiladi.

Misol uchun, mamlakatning ichki siyosatiga doir masalalar: xavfsizlikni ta'minlash, ichki bozorni tartibga solish, amnistiya aktini e'lon qilish, markaziy saylov komissiyasini to'zish va h.k.larga oid hamda davlatning tashqi siyosatiga doir masalalar: boshqa davlatlar bilan turli yo'nalishlar hamkorlik qilish, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash va h.k.lar bo'yicha qarorlar qabul qilishi mumkin.

Senatning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga binoan turli lavozimlarga saylash, tayinlash va lavozimidan ozod etish bilan bog'liq vakolatlarini biz "Senatning Kadrlar masalasiga oid vakolatlari" deb atashimiz mumkin. Chunki, bu boradagi vakolatlar O'zbekiston Respublikasida turli soxa kadrlarini muayyan lavozimlarga saylash, tayinlash hamda lavozimidan ozod etish bilan bog'liq. Aynan Senat tomonidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudini, O'zbekiston Respublikasining Oliy sudini, O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudini saylanishi yoki O'zbekiston Respublikasi

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini, O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi yuqori palataning davlat apparatidagi mavqeini yuksaltiradi. Bu ayni vaqtda demokratiyaning muhim ko'rsatgichlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mansabdor shaxslarni turli lavozimlarga tayinlashga oid farmonlarini tasdiqlash bilan bog'liq vakolatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash. Ushbu guruhda, davlat uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etuvchi lavozimlarga mansabdor shaxslarni tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish bo'yicha Prezidentning farmonlarini tasdiqlash bilan bog'liq Senatning mutlaq vakolatlari o'z aksini topgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vakolat doirasida farmon, qaror va farmoyishlar chiqaradi. Ko'plab bunday mustaqil qabul qilingan normativ-huquqiy qujjatlar boshqa organ tomonidan tasdiqlanmaydi. Ayrim, o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lganlarigina, boshqa organ tasdig'iga kiritiladi. Bu guruhda aynan shunday masalalar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini hamda Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarining Senat tomonidan tasdiqlanishi xususida fikr yuritilmoqda.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari mamlakatda qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi organga rahbarlik qiladi.

Milliy xavfsizlik xizmati raisi esa mamlakatning hududiy yaxlitligi, tinchligi, fuqarolarimizning tinch va osuda qayoti uchun mas'ul bo'lgan tizimga rahbarlikni amalga oshiradi.

Yuqoridagi ikki davlat organining O'zbekiston Respublikasi uchun ahamiyati beqiyos. Bu ushbu lavozimlarga kadrlarni joylashtirish masalasini ham nechog'lik nozikligini aks ettiradi. Albatta, ushbu masala yo'zasidan chiqarilgan Prezidentning farmonlarini Senat tasdig'iga kiritilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotidagi muhim masalalarni xal etishga oid vakolatlari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish.

Ushbu guruhda, mamlakat hayotiga oid muhim masalalarni Senat tomonidan hal etiladigan turlari xususida so'z boradi. Senat mamlakat oliy vakillik organining yuqori palatasi bo'lganligi uchun davlat hayotiga oid eng muhim masalalarni hal etish vakolati unga berilgan. Ulardan biri: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilishdir.

Ushbu masala, ya'ni Amnistiya aktlarini qabul qilish muqaddam (Parlament ikki palatali tizimga o'tgunga qadar) faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan hal etilardi. Qonunchilikning takomillashuvi ushbu vakolatni Senatning mutlaq vakolatlari sirasiga qo'shdi.

Ma'lumki, Amnistiya – jinoyat sodir etgan shaxslarni to'la yoxud qisman ozod qilish yoki ilgari sud tayinlagan jazoni o'tagan shaxslarning sudlanganligini olib tashlashdan iborat faoliyatdir. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya'ni amnistiya aktida ko'rsatilgan shartlarga javob beruvchi barcha shaxslarga nisbatan joriy etiladi. Amnistiya e'lon qilinishi bilan tergovda bo'lgan ishlar yoki tergovni tugagan, ammo hali sud tomonidan ko'rib chiqilmagan ishlar ham yurituvdan

to'xtatiladi. Jazoni o'tayotgan shaxslar uni o'tashdan ozod qilinadilar yoki jazo muddati qisqartiriladi. Agar, ayblanuvchi ishning amnistiya bo'yicha to'xtatilishiga e'tiroz bildirsa, ushbu ishning tergov va sudini yuritish davom ettiriladi. Sud ayblanuvchini aybdor deb topsa, ish amnistiya aktida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra to'xtatiladi.

Bu mamlakatimizda hukm surayotgan insonparvarlik tamoyilining nafaqat nazariy, balki amaliy ifodasidir. Bunday davlat ahamiyatiga molik masalalarda Oliy Majlis Senati faol ishtirok etishi lozim.

Davlat hayotiga oid muhim masalalar: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish kabi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlariga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori har yilda bir marta prokuratura faoliyati to'g'risida hisobot beradi. Unda mamlakatda qonunga amal qilish borasidagi muammolar, korrupsiya va jinoyatchilikning darajasi, dinamikasi, uning oldini olish masalalari, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va h.k. masalalar xususida hisobot taqdim etadi. Ushbu hisobotni eshitish va muhokama qilish, tegishli xulosaga kelish, muayyan chora-tadbirlarni belgilash Senatning vakolatidir.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muqofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlari ham davlatning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bilan o'zviy bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda ushbu vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga berilgan.

Xulosa qilib aytganda, parlament Oliy Vajlis senatining faoliyati Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida belgilab berilgan jamiyatni va davlatni rivojlantirishning tom ma'nodagi yangi bosqichida mamlakatni modernizatsiya

qilishning muhim vazifalarini hal etishga qaratilgan bo'lib, senatning butun salohiyati, imkoniyatlari va vositalarini safarbar etish, uning qonunchilik, nazorat-tahlil, axborot-targ'ibot va xalqaro faoliyatini yo'naltirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratishi kerak bo'ladi.

Xulosa

“O‘zbekistonda parlament islohoti va uning siyosiy-huquqiy hayotdagi o‘rni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yo‘zasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘zbekiston o‘zining huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lini tanlab olgan ekan bu borada qonun chiqaruvchi hokimiyatning mustaqilligini ta'minlash, uning xaqiqiy ma'nodagi xalq vakilligining ifodachisi sifatidagi o‘rni, roli va ta'sirini oshirib borishi kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa mamlakatimizda parlament institutining tarixiy rivojlanishi va taraqqiy etishi jarayoni bilan bog‘liq masalalarni ilmiy nazariy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda olib borilgan parlament islohoti natijasida ikki palatali parlament tizimiga o‘tish mamlakatimiz uchun yangi huquqiy-siyosiy institut – qonunchilik palatasi va yuqori palata – Senatdan iborat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishga imkon berdi. Parlament qonun chiqaruvchi funktsiyalarga ega bo‘lgan mumtoz, umummilliy hamda vakillik organi bo‘lib qoldi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar tajribasi ko‘pgina demokratik qadriyatlar kundalik hayotimizdan ancha mustahkam o‘rin olganligini va uning ajralmas qismi bo‘lib qolganligini, parlament faoliyati sohasida qiziqarli va foydali tajriba to‘planganligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston parlamenti uning obro‘yi va samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan qay tarzda va qaysi yo‘nalishda rivojlanib borishi kerakligi masalasi hozir ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Davlat qurilishining mana shu g‘oyat muhim yo‘nalishida yangicha yondashuv va g‘oyalarni izlashdan to‘xtab qolish mumkin emas. Aksincha, bu ish faollashgan taqdirdagina mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-demokratik o‘zgarishlar va bozor o‘zgarishlarining qonunchilik negizini rivojlantirishda haqiqiy muvaffaqiyatga umid qilish mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib malakaviy bitiruv ishi yo'zasidan quyidagi xulosa chiqarish mumkin:

Birinchidan, O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatning rivojlanishi asosan vakillik instituti sifatida qaror topishi Chor Rossiyasi va keyingi inqilob davridan keyin shakllana boshladi;

Ikkinchidan, Totalitar to'zum sharoitida sovet hukumati go'yoki millatlarning o'z taqdirini o'zi qal qilishi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surgan bo'lsada, aslida real milliy vakillik institutini qaror toptirish uchun xech qanday imkoniyat yaratilmagan edi;

Uchinchidan, mamlakatimizda xaqiqiy parlamentarizm an'analari faqatgina O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng yo'zaga keldi;

To'rtinchidan, dastavval mamlakatimizdagi siyosiy-ijtimoiy holatni inobatga olgan holda bir palatali Oliy Majlis tashkil topdi va 2004 yilga qadar mamlakatimizda qonun chiqaruvchi oliy hokimiyat organi va vakillik instituti vazifasini o'tadi. Ushbu davrda bir palatali parlament tomonidan mamlakatimizning mustaqillik asoslarini mustahkamlovchi huquqiy asoslar shakllantirilishi bilan bir qatorda xaqiqiy ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishi va rivojlanishi uchun zamin yaratildi. Ushbu davrda 1994, 1999 yillarda bo'lib o'tgan saylovlar demokratik tamoyillar asosida bo'lib o'tdi.

Beshinchidan, O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat boshqaruvini yangilash va mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida professional parlament institutini shakllantirish masalasi kun tartibiga qo'yildi va referendum asosida bu masala ijobiy hal qilindi. 2004 yilda ilk marotaba O'zbekistonda yuqori palata Senat va quyi qonunchilik palatasidan iborat ikki palatali parlament tizimi qaror topdi. Ikki palatali parlamentning qaror topishi o'z navbatida parlament oldiga yangi vazifalarni qo'ydi va mamlakatni keyingi taraqqiyot bosqichida parlamentning o'rni va ahamiyatining o'sishiga olib keldi;

Oltinchidan, 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada

chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi”ga asosan O’zbekistonda parlamentning davlat qarorlarini qabul qilishdagi o’rnini oshirish, parlamentning ijro hokimiyatining ustidan parlament nazoratini kuchaytirishning muhim ustuvor yo’nalishlari belgilandi va 2011 yilda ushbu vazifalar Konstitutsiyaga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish orqali amalga oshirildi;

Ettinchidan, parlament taraqqiyotidagi yuqoridagi taraqqiyot bosqichlar o’z navbatida ma’lum bir tarixiy voqealiklar, tarixiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog’liq bo’lib, fikrimizcha mamlakatimizda ushbu jarayonlar bilan bog’liq masalalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, malakaviy bitiruv ishi doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari asosida quyidagilarni taklif qilgan bo’lar edik:

- O’zbekistonda professional parlamentni shakllantirish lozim. Bu esa ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini o’rnatish imkonini beradi. Shu bilan birga nafaqat markaziy ijro organlari, balki mahalliy davlat hokimiyati organlarida ham qonunlar ijrosini to’la ta’minlash imkonini yaratadi;

- mamlakatimizda keyingi yillarda parlamentni shakllantirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglab yetish maqsadida, uslubiy, o’quv qo’llanmalar nashr etish va dars jarayonlarida kengroq qo’llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 2014 yil T.: "O'zbekiston".
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ro'za, 1995 yil 23 fevral. T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Vatan ozodligi – oliy saodat: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasidagi ma'ro'za.- T.: O'zbekiston .1999. 8-b.
4. Karimov I.A. Biz kelajzgimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, T. 7. - T.: O'zbekiston.1999. 362-b.
5. Karimov I.A. O'zgarish va yangilanish – hayot talabi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutqi // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. T.: "O'zbekiston", 2000. – 528 b.
6. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya qilish va isloh etishdir. Xalq so'zi, 2005 yil 29 yanvar, № 20 (3565).
7. Kapimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ro'za. T.: "O'zbekiston" 2010. 11-13-b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston. 2011.- 432 b.
9. Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti. Xalq so'zi. 1991 yil 2 sentyabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining arxivi. 1991. 7358-son. 240-b.

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992. №5 1, 109, 1993. № 7. 29 - 31-b
12. Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga etkazaylik: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiinnig o'n oltinchi sessiyasidagi ma'ro'za. - T: O'zbekiston. 1994. 3-b.
13. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» Konstitusiyaviy qonuni. - Xalq so'zi, 2002, 27 dekabr.
14. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining qo'mitalari to'g'risida"gi 2005 yil 27 yanvardagi 14-I-sonli qarori.
15. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yilga mo'ljallangan faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yil 20 apreldagi 50-I-sonli Qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Devoni to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2005 yil 7 apreldagi 73-sonli Farmoyishi.
17. Xalilov E. O'zbekiston Respublikasining qonun chiharuvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar.—T.: O'zbekiston, 2001.—348 b.
18. Azizxo'jayev A.A. Demokratiya xalq hokimiyati demakdir. — T.: Sharq. 1996. — 226 b.
19. Adilhodjayeva S.M. Evolyusiya politiko-pravovyx idey liberalizma, problemy ix realizasii na soveremennom etape: Voprosy teorii i praktiki: Avtoref.diss.dok.yurid.nauk. —T.: 2003.-51 s.
20. Boboyev H.B. O'zbek davlatchiligi tarixi. —T.: Fan. 2004. — 294 b.
21. Boydadayev M. Fuqarolik jamiyati va davlat boshharuvining dolzarb muammolari. — T. TDYuI. 2003.- 52 b.

22. Islomov Z.I. Inson huquqlari va hozirgi zamon yurisprudensiyasi. – T.TDYuI. 2008.
23. Jalilov Sh.I. Konstitutsiya Respubliki O'zbekistan o dostoinstve i chesti lichnosti. T.: TGYuI. 2003. – 116 s.
24. Muhimov Z.Yu. O'zbekiston davlat va huquqi tarixi. Darslik. – T.: Adolat. 2003 y.
25. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati – T.: Sharq. 2002. – 320 b.
26. Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Sharq. 2001. – 762 b.
27. Fayziyev M.M. Milliy davlatchilik taraqqiyoti. – T.: JIDU. 2002. – 33 b.
28. Xusanov O.T. O'zbekiston respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. – T.: Universiteti. 1994. -132b.
29. Yuridik ensiklopediya, Toshkent, «Shark», 2001 yil, 355 – bet.
30. Bromxed P. Evolyusiya Britanskoy konstitusii. M., YuL, 1978 y., 199 b.
31. Konstitutionnoye (gosudarstvennoye) pravo zarubejnmx stran. Uchebnik. V 4-x tomax. Tom 3. Otv. red. B.A.Strashun. -M.: Bek. 1997. - 764 s.
32. O'razayev Sh.Z.. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. T.: "Adolat", 1994 y. 12-bet
33. Xalilov E.X. Parlament O'zbekistana na sovremennom etape razvitiya strany. // Pravo. №1. - 1998. – 8-11-betlar.
34. Konstitusii zarubejnyx gosudarstv.Uchebnoye posobiye. Moskva: “Bek”, str.50-55, 60-61.
35. Konstitutionnoye (gosudarstvennoye) pravo zarubejnyx stran. T. 1 – 2.- M., 1996, S. 456.
36. Mogunova M.A. Skandinavskiy parlamentarizm. Teoriya i praktika. - M.: Rossiysk. gos. gumanit. un-t, 2001,-S.9.
37. Lyubimov A.P. Parlamentskoye pravo Rossii. - M.: Izdatelsko-knigotorgovsh sentr «Marketing», 2002, - 34.

38. Kotelevskaya I.V. Sovremennsh parlament // Gosudarstvo i pravo. - 1997. - №3. -s.10.
39. Lokk Dj. Sochineniya : V Zt./Per.s angl. i lat. T.Z/Red.i sost., avt. primech. A.L.Subbotin. - M.: Mysl, 1988.-S.40.
40. Mogunova M.A. Skandinavskiy parlamentarizm. Teoriya i praktika. - M.: Rossiysk. gos. gumanit. un-t, 2001,-S.9.
41. Lyubimov A.P. Parlamentskoye pravo Rossii. - M.: Izdatelsko-knigotorgovsh sentr «Marketing», 2002, - 34.
42. Kotelevskaya I.V. Sovremennsh parlament // Gosudarstvo i pravo. - 1997. - №3. - s.10
43. P.A.Fedosov. Dvuxpalatnme parlamenti: yevropeyskiy i otechestvennsh opnt. // Polis, 2001. №2. 173-174 betlar.

Elektron resurslar

1. [http:// www.parlament.Gov.uz](http://www.parlament.Gov.uz)
2. [http:// www.Senat.Gov.uz](http://www.Senat.Gov.uz)
3. [http:// www.Gov.uz](http://www.Gov.uz)
4. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [http:// www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
6. [http:// www.xz.uz](http://www.xz.uz)
7. [http:// www.Internet-law.ru](http://www.Internet-law.ru)
8. [http:// www.dissertstionl.narod.ru./avtorefeatsl](http://www.dissertstionl.narod.ru./avtorefeatsl)
9. <http://www.library.by/data>
10. <http://www.Lawportal.ru>
11. <http://www.Legislature.ru>